جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid


2024-yil 21-iyun
№ 26(26)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

OYDINLAR

“Toza ma’rifat suvi”

“ ...Naim Karimov o‘zbek adabiyotshunosligida uzoq samarali yo‘lni bosib o‘tdi. U jadid va sho‘ro adabiyotshunosligini ich-ichidan yoritadigan materiallar, ma’lumotlar, rang-barang faktlarni xuddi dono xazinabon kabi yillar davomida sinchiklab, avaylab, ardoqlab yig‘ib bordi. Yillar o‘tib u chin qomuschi olimga aylandi...”



(4-sahifada o‘qing).

MEHR RISHTALARI

“Men vatanimni, xalqimni sevaman!”



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi xodimlari bilan birgalikda poytaxtimizdagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan 1-sonli “Muruvvat” internat uyida bo‘lganimizda xayr-saxovat, shafqat va mehr-oqibat kabi tushunchalar millatimizda qadriyat darajasida shakllanib, qon-qonimizga singib ketganiga guvoh bo‘ldik.

G‘oyat muhtasham, yon-atrofi obod va ko‘rkam maskanga kirib borganimizda kun peshindan og‘gan, lekin hali saraton issig‘ining tafti qaytmagan edi. Internat uyi hovlisi keng-mo‘l, bahavo, yo‘llar, yo‘laklar asfaltlangan, ravon.

Barg-yaproqlari top-toza, baland, orasta, mehr bilan parvarishlangan daraxtlar quyuq soya solib, yoz taftini pasaytiradi. Yon-atrof dil yashnaydigan darajada yuksak did hamda zamonaviy dizayn va shaharsozlikning muayyan talab va mezonlari asosida obodonlashtirilgan. Hududda bir qarich yer yo‘qki, ko‘kalamzorlashtirilmagan bo‘lsa. Betakror chiroyi va haroratli ranglari bilan hovliga ko‘rk va fayz bag‘ishlab unib-o‘sgan turfa gul, maysa va manzarali butalarni ko‘rib ko‘z quvnaydi.

Ushbu muassasaning o‘z tarixi bor. U 1979-yilda faoliyat boshlagan bo‘lsa-da, keyingi yillarda mamlakatimizdagi keng ko‘lamli yangilanish va o‘zgarishlar, jumladan, ijtimoiy himoya sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida tubdan yangicha qiyofa kasb etdi. Qo‘shimcha binolar qurilib, eskilari ta’mirlandi. Yozgi sport zali, nogironlarni parvarishlash va davolash bo‘limlari, muolaja va mashg‘ulot xonalari, faollar zali, kutubxona, yotoqxona va oshxona butunlay yangilandi. Ixtisoslashgan bo‘limlar, maxsus xonalar talab darajasida jihozlandi. Har xil sabablar tufayli harakatlanishi cheklangan bolalar maxsus aravachalar bilan ta’minlandi. Bugungi kunda mazkur mehr-oqibat maskani uch yuz nafardan ortiq bolalar va o‘smirlarni o‘z bag‘riga olgan. Ayni paytda ularning har biri davlatimiz rahbarining mehrini, e’tibori va g‘amxo‘rligini o‘z hayotida his etmoqda.

Shu yilning mart oyida davlatimiz rahbari tashrifidan so‘ng muassasaning yangi hayoti boshlangani rost. Prezidentimiz tarbiyachilar va o‘quvchi bolalar bilan muloqot chog‘ida mamlakatimizda davlat va jamiyat nogironligi bor har bir bolaga hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishini, bunday bolalar indivuidual rivojlanish dasturlari asosida jamiyatga integratsiya qilinishini, hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasligini alohida ta’kidladi.

Ha, bu maskanda bugun o‘zgacha ruh hukmron. Tarbiyachilar va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini kuzatarkansiz, ular real hayot va jamiyatdan uzilib qolmaganiga guvoh bo‘lasiz. Shubhasiz, davlatimiz rahbarining bunday muassasalarga alohida e’tibor qaratishidan maqsad ham shu toifadagi bolalarning yolg‘izlanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Shu o‘rinda hazrat Alisher Navoiyning mashhur bayti yodga tushadi:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning
xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa,
obod aylagay.

Bugun Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan insonparvar va adolatli siyosat, chuqur islohotlar qanchadan-qancha “buzug‘ va vayron ko‘ngillarni obod etib”, ularni hayotdan rozi qilishga qaratilgani uchun ham xalqimiz mamlakatning taraqqiyot yo‘lini qo‘llab-quvvatlamoqda.

“Muruvvat” uyidagi har bir o‘quvchi nimagadir qiziqadi. Bu yerda izchil yo‘lga qo‘yilgan ta’lim-tarbiya ana shu qiziqish va layoqatni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan. Bu bolalarning orasida ko‘zlari chaqnab, qalbi jo‘shib, chehrasi taqdirdan mamnunlikni, tiriklikdan shukronalikni ifoda etgan bir yigitcha bor. Uni Hasan Asrayev deydilar. U adabiyotga, she’riyatga jon-dili bilan qiziqadi. Prezidentimiz ushbu mehr-muruvvat dargohiga tashrifi chog‘ida Hasan bilan ham muloqotda bo‘lgan, uning qat’iyati, kuchli irodasi, orzu-intilishi va maqsadini qo‘llab-quvvatlash, iste’dodini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha mutasaddilarga muhim topshiriqlar bergan edi.

O‘tgan davrda havaskor shoir Hasan Asrayevning she’rlari ustoz shoirlar tomonidan diqqat bilan ko‘zdan kechirildi, tahlil qilindi va saralandi. Yosh iste’dod egasiga zarur maslahatlar, tavsiyalar berildi, she’r yozish, so‘z bilan ishlash borasida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatildi.

(Davomi 2-sahifada).

ADABIY DO‘STLIK

“Turk ulusi xud meningdur”

Turk navoiyshunosligi uzoq tarixga ega. Ammo adabiyotshunos Abdurahmon Go‘zal tadqiqotlari va uning sa’y-harakatlari natijasida Turkiya Respublikasi Bashkent universiteti huzurida 2022-yil 10-fevralda tashkil etilgan Alisher Navoiy nomidagi tadqiqot va targ‘ibot markazi dunyo navoiyshunosligida yangi bir sahifa ochishi shubhasiz.


Navoiyshunoslik istiqbolida markazning o‘rni va olimning orifona tahlillari ahamiyatlidir. Abdurahmon Go‘zalning ilmiy faoliyat bobida o‘zbek ijodkorlari va adabiyotshunoslari bilan samimiy ijodiy aloqasi e’tirofga molik. Umuman, o‘zbek va turk adabiyotshunoslari o‘rtasida Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy va Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy merosini o‘rganish bo‘yicha mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani amalda yaxshi natijalar bermoqda.

Alisher Navoiy asarlarini keng targ‘ib qilish, shoirning sharafli hayoti va turkiy tilni san’at darajasiga ko‘tarishdagi salohiyatini chuqur o‘rganish ushbu markazning bosh maqsadlaridan sanaladi. Abdurahmon Go‘zal turkiy xalqlarning ulkan ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yishida ulug‘ ajdodimizning beqiyos xizmatlariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarni amalga oshirdi. Navoiyning o‘zbek tilshunosligini rivojlantirish va ona tilimizning o‘ziga xos sehr-u jozibasini she’riyat orqali ko‘rsatib berishdagi ulkan xizmatlari dunyo miqyosida e’tirof etilgan.

Abdurahmon Go‘zal esa turkiy tilning tarixiy ildizlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, quyidagicha nazariy xulosalar chiqaradi: “Ma’lumki, Mahmud Koshg‘ariy XII asr oxirida “Devoni lug‘otit-turk” asarini yozib, turk tili va madaniyatining kelajagini ta’minladi. Alisher Navoiy esa Koshg‘ariydan 400 yil keyin ota tili va ma’rifatini xuddi ana shunday tafakkur va e’tiqod bilan munosib himoya qildi.

(Davomi 2-sahifada).

27-IYUN – MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI



“TARAQQIY”DAN “JADID”GACHA

O‘zbek matbuoti tarixi jadidlik harakati va jadid ziyolilari nomi bilan tabiiy ravishda bog‘lanadi. Jadidlik ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy harakatdir. Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasini ibratxonaga aylantirish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi.

Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so‘zning kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo‘ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog‘i va dunyodan boxabar bo‘lmog‘i uchun zaruratga aylandi. Dastlab gazetalar oyda bir bora bazo‘r nashr qilindi; asta-sekin haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma’lumotlar ma’naviy ehtiyoj tusini oldi.

Darhaqiqat, jadidlar millat ma’naviyatini isloh etish, odamlarni ma’rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o‘rgatish va mudroq tafakkurni uyg‘otishning eng asosiy omili sifatida matbuotning qadrini baland ko‘tardi. Matbuot ular nazdida fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo‘lida xizmatchi, odamlar ong-u shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko‘zgu bo‘lmog‘i lozim edi. “Ulfat” ko‘ngillar birligidan so‘z ochishi, “sado”lar ma’rifat va ma’naviyat, odobiyot va adabiyotning ovozi bo‘lishi kerak edi. Gazeta va jurnallar nomi shu ezgu niyatlarga moslab tanlandi.

Turkistonlik ziyolilar o‘zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga – Bog‘chasaroyga ko‘z tikishdi. Ismoilbek G‘aspralining “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan g‘oyalariga havaslanib qarashdi.

(Davomi 5-sahifada).

SHU SONDA:

Maqomda ulug‘vorlik mujassam



(8-sahifada o‘qing).

“Qiz chiqarganga qirq yil tegma” yoxud topgani to‘yga buyurgan odamlar...

Dabdaba va dahmaza



(6-sahifada o‘qing).

“Men vatanimni, xalqimni sevaman!”



Boshlanishi 1-sahifada.

Hasan Asrayevning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, Yozuvchilar uyushmasiga a’zolikka hamda ishga qabul qilindi. Yaqinda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida “Adabiyot” nashriyoti tomonidan uning “Ezgu niyat” nomli ilk she’riy to‘plami nashr etildi.

Biz Hasan Asrayevga ana shu kitobni mamnuniyat bilan topshirdik va yosh shoirni dildan tabrikladik. U kitobni qo‘liga olar ekan, yuz-ko‘zi yashnab ketdi.


– Birinchi kitobimni Prezidentimizning qadri nihoyatda baland mukofoti, bag‘rikeng, mehribon, menga, menga o‘xshaganlarga otalarcha g‘amxo‘r insonning sovg‘asi sifatida qabul qilaman. Dastlabki she’riy mashqlarimga, tabiiyki, muayyan kamchiliklardan xoli bo‘lmagan bitiklarimga Yozuvchilar uyushmasining, tajribali adiblarning diqqat-e’tiborini jalb etganliklarini u kishining yosh ijodkorlarga, qolaversa, adabiyotga marhamati, g‘amxo‘rligi deb bilaman.

– Hasanjon, siz she’rni qanday tushunasiz? Qachondan buyon she’rlar yozasiz?

– O‘n ikki-o‘n uch yoshlarimdan buyon she’rlar mashq qilaman. She’rni hayotga bo‘lgan muhabbatning ifodasi, deb bilaman. Ifodasigina emas, u orzu, maqsad sari undovchi porloq mayoq hamdir. She’r – ko‘ngil kechinmalaridan ko‘chirma. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyidning she’rlarini sevib o‘qiyman. Ustoz shoirlarning she’rlari menga ruhiy quvvat, kelajakka ishonch, hayotimga nur bag‘ishlaydi. Keyingi paytlarda jadid ma’rifatparvarlarining asarlarini o‘qishga kirishmoqdaman. To‘g‘ri, oradan o‘tgan yillar mobaynida ona tilimiz ancha o‘zgarishlarga uchragani tufayli u kitoblarni ma’lum tayyorgarliksiz o‘qib tushunishim qiyin kechmoqda. Ammo qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda, tushunishga harakat qilyapman. Jadid adabiyotini xalqimizning katta ma’naviy xazinasi, deb o‘ylayman. Ana shunday bir-biridan qiziqarli kitoblar, she’rlar va boshqa badiiy asarlar bilan kunlarimiz mazmunli, serzavq o‘tyapti. Prezidentimiz bilan uchrashganimiz va suhbatlashganimiz menga doim ilhom bag‘ishlab, ilgariga chorlab turadi. Aslida bu mening orzum edi. Agar niyati to‘g‘ri bo‘lsa, kishi o‘z orzusiga erishar ekan.

– She’rlaringizning birinchi o‘quvchilari kimlar bo‘ladi?

– Bu yerda mening aka-ukalarim, opa-singillarim ko‘p. Men ularning birini yaqin, boshqasini uzoq deya olmayman. Men uchun ularning hammalari yaqin, eng yaqin. Masalan, Umrzoq – ukam, Rahim, Otabek – akalarim. Yana opa-singillarim bor. She’riy mashqlarimni birinchi bo‘lib ularga o‘qib beraman. Ular she’rlarimga fikr bildirishadi.



Ba’zan maqtashsa, ba’zida tanqid ham qilishadi.

– Tanqidiy fikrlardan xafa bo‘lmaysizmi?

– Yo‘q, tanqidni to‘g‘ri qabul qilaman. Ularning fikr-mulohazalarini inobatga olib, she’rlarimni qayta ishlayman. Ijodkor tanqidga doim tayyor turishi kerak, deb o‘ylayman. Chunki avvalo kamchilik va qusurlardan xoli asar yaratish juda mushkul, qolaversa, tanqid – kelajak mevasi, degan gap bor. Mening she’rlarimga birinchi bo‘lib fikr bildiradiganlarga kelsak, ular o‘rtoqlarim, menga yaxshilik istaydigan do‘stlarim. Biz do‘stlarim bilan har doim, har bir yumushda bir-birimizni qo‘llab-quvvatlaymiz. Ularning so‘zlari, fikrlari menga dalda, madad bo‘ladi. Bir she’rimda do‘stlik haqida:

Chinakam do‘st, albatta,
Yoningizda turadi.
Qanday holat bo‘lmasin,
Sizga tirgak bo‘ladi, –

deb yozganman. Bu misralar atrofimdagi sadoqatli do‘stlarim haqida aytilgan ko‘nglimdagi samimiy kechinmalardir.

– She’riyatdan boshqa yana nimalarga qiziqasiz?

– Boya ham aytdim, kitoblar o‘qiyman. Badiiy asarlar orqali hayotni, odamlarni o‘rganishga harakat qilaman. Kitob biz, yoshlarning ma’naviyatini yuksaltiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Prezidentimiz ko‘p kitob o‘qib, tanlovlarda g‘olib bo‘layotgan tengdoshlarimga mashina sovg‘a qilmoqdalar. Bu tengdoshlarimning mutolaaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, albatta. Kelgusida astoydil shug‘ullanib, puxta tayyorgarlik ko‘rib, shunday tanlovlarda qatnashish niyatim bor.

Bu yerda tez-tez sport o‘yinlari uyushtiriladi. Men shaxmat-shashka o‘ynashga qiziqaman. Sir emas, shaxmat-shashka izchil va mantiqiy fikrlashni o‘rgatadi. Musobaqalarda avval ko‘proq yutqazardim, endi yuta boshladim. Bu tajribam, malakam oshib borayotganini ko‘rsatadi, shunday emasmi?

– Ha, inson bir ishga yeng shimarib kirishar ekan, albatta, maqsadiga erishadi. Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?

– Kelajakda mashhur shoir bo‘lmoqchiman. She’rlarim bilan odamlarga, xalqimga xizmat qilsam, menga yaxshilik qilganlarga yaxshilik bilan javob qaytarsam deyman. Shoir bo‘lish uchun esa so‘z boyligimni oshirishim, so‘zlarni daftarga yozib borishim, o‘rni kelganda ulardan to‘g‘ri foydalanishim kerakligini bilaman. Albatta, yaxshi she’r yozish mashaqqatli ish. Lekin men bu yo‘lda sabrli, irodali, qat’iyatli bo‘laman. Ustozlarning yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlaricha, shundagina arzirli natijaga, maqsadimga erishishim mumkin. Yozuvchilar uyushmasi a’zosi ekanim zimmamga ko‘p karra mas’uliyat yuklaydi.

– O‘zingizga judayam yoqadigan she’ringiz bormi?

– Shunday she’rim bor. U “Yurtboshimizga” degan she’r:

Ajdodlarning ruhlarin
shod etmoqdadirsiz,
So‘zlaganda ulardayin samimiy so‘zlab.
Ularning ishlarin davom ettirmoqdasiz,
Faqat farovonlikni, tinchlikni ko‘zlab.

Buyuk ajdodlarimiz tarixda davlatchilik, ilm-fan, san’at, madaniyat, adabiyot sohalarida o‘chmas iz qoldirishgan. Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Temur Malik, Yalangto‘sh Bahodir singari nomdor sarkardalar, Abu Iso Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Sulton Uvays Qaraniy kabi mutafakkir-allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Ogahiy kabi mumtoz shoirlar, Vatanimiz va xalqimiz tarixida muhim o‘rin tutgan jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va merosini o‘rganishda yangi davr boshlandi. Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni qaror toptirishda mamlakatimiz rahnamosiga, xalqimizga ularning pok ruhlari madadkor bo‘ladi, albatta.

– Nima uchun she’r yozasiz? Nimalar sizni she’r yozishga undaydi?

– Men Vatanimni, xalqimni sevaman! Hayotni yaxshi ko‘raman. Shu tuyg‘u meni she’r yozishga, mehr-muhabbatimni ifoda etishga undaydi.

Shu jannatmakon yurtni,
Shak-shubhasiz, sevaman.
She’r bitaman, sevgimni
Shunday izhor etaman.

– Vatanni qanday tasavvur qilasiz?

– Bu boradagi tushunchamni to‘rt qator she’r bilan ifodalasam:

Gar bilsangiz, yurtimiz –
Bog‘i Firdavs nusxasi.
Shu uchun ham dunyoning
Kelar bizga havasi.

Yangi O‘zbekistonimiz gurkirab rivojlanmoqda. Prezidentimiz bu ulug‘ taraqqiyotning yetakchisi bo‘lib turibdi. Men va do‘stlarim pok niyatlar ijobat bo‘ladigan mana shunday ilohiy kunlarda u kishiga uzoq umr, mustahkam salomatlik tilaymiz. Xalqimizning, bizga, menga o‘xshagan odamlarning baxtiga doim omon bo‘lsinlar!

– Hasanjon, siz nimani orzu qilasiz?

– Mening orzum – O‘zbekistonimizda, jahonda doimo tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lsin! Qayerlardadir davom etayotgan urush va janjallar tezroq barham topsin!

Ozod yurt farzandimiz –
Kelajak qo‘limizda.
Zafarli marralar bor
Hali bu yo‘limizda.

– Yana nimadir demoqchisiz, shekilli?

– Ha, shu onda xayolimdan ko‘p o‘ylar kechmoqda. Kitobimning chiqishi men uchun katta baxt. Bu o‘z ustimda yanayam ko‘proq ishlashga, yaxshi she’rlar yozishga undaydi. Shu dargohda men bilan birga ta’lim-tarbiya olayotgan do‘stlarimni ham yangi marralar sari rag‘batlantiradi. Barchamizda o‘zimizga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Mening kichik mehnatimga shunday katta e’tibor berganliklari uchun Prezidentimizga ming rahmat!

* * *

“Muruvvat” uyidan qaytarkanmiz, saratonning qaynoq tafti ham qaytib borardi. Orasta hovlidan esgan salqin shabada dillarga orom va huzur ulashadi. Bu farzandlari – jigarbandlarini shu dargohga, mehr ko‘rsatayotgan insonlarga ishongan ota-onalarning hayotidan, qalbidan chuqur o‘rin olayotgan xotirjamlik bo‘lsa, ajabmas.

Yana bir gap. Bu yerda bolalar turli qalinlikdagi qog‘ozlar, rangli qalamlar, bo‘yoq-ranglar, matolar, yog‘ochlardan o‘z qo‘llari bilan yasagan (yaratgan deyilsa, to‘g‘riroq bo‘ladi, nazarimizda) rasmlar, kitobchalar, uychalar va boshqa har xil narsa-buyumlarni ko‘rib, o‘zingizni ko‘rgazmalar zaliga tushib qolgandek his qilasiz hamda “imkoniyati cheklangan” deyilgan bolalarning imkoniyatlari, aksincha, cheksiz ekaniga guvoh bo‘lasiz.

Dunyoga ilinj, havas, umid bilan qaragan, qalbi, fikri, insonni, Vatanni anglashi sog‘lom bolalarning, ularning ota-onalarining ko‘nglidan kechayotgan, lekin tiliga ko‘chmayotgan sezimlarni, hissiyotlarni so‘zsiz tushunish, ularga hayotdan rozi bo‘lib yashashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, dardmandlarga darmon bo‘lish uchun inson, avvalo, katta qalb egasi, nomi bosh harflar bilan yoziladigan Inson bo‘lishi kerak!

Yosh shoir: “Yurtga nafing tegmasa, Qurib qolgan teraksan”, deb yozadi. Biz unga kelajakda ulkan daraxtga aylanib, el-yurtga foydasi tegishini, undan barcha-barchaga manfaat yetishini tilab qolamiz.

Salim ASHUR,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

“Turk ulusi xud meningdur”

Boshlanishi 1-sahifada.

Turkiy xalqlarning ma’naviy qiyofasi xavf ostida qolgan bir davrda u o‘zining ko‘lamdor va betakror asarlari, beqiyos amaliy sa’y-harakatlari bilan milliy til va adabiyotni o‘z mohiyatiga qaytarish va rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shdi. U ham olim, ham ijodkor, ham davlat arbobi sifatida butun borlig‘i bilan o‘z xalqiga kamarbasta bo‘ldi”.

Abdurahmon Go‘zal Alisher Navoiy dostonlarini o‘rganish borasidagi tadqiqotlari bilan ham navoiyshunoslik ilmidagi irfoniy-g‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qildi. Abdurahmon Go‘zal alloma shoirning asarlarini aniq va tizimli asosda sharhlashda o‘ziga xos bataf-sillik, teranlik va mohiyatbinlikni namoyon qildi. U Alisher Navoiyning barcha asarlari xususida qisqa, lo‘nda va aniq xulosalar chiqaradi. Abdurahmon Go‘zal o‘zi tahlil qilayotgan asarlarning g‘oyasi, shakli, uslubi va hatto, an’anaviy qahramonlariga baho berishda ham turkiy tafakkurga alohida ahamiyat qaratadi: “Alisher Navoiy ijodining yana bir muhim jihati shundaki, u o‘z asarlarida milliy tip va xarakterlardan foydalangan. Forsiy adabiyotda qo‘llanilgan qahramonlar Navoiy asarlarida faqat nomlarinigina saqlab qolgan holda turkiy shaxsiyatni tamsil etgan”.

Turkiyadagi Alisher Navoiy nomidagi tadqiqot va targ‘ibot markazining dunyo navoiyshunosligi, eng avvalo, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi bilan olib borayotgan hamkorligi o‘zbek navoiyshunosligi uchun ham ahamiyatlidir.

Markaz o‘z oldiga Alisher Navoiy asarlarining mukammal nashrlarini yaratish, shoir ijodiy merosini tahlil va talqin etuvchi tadqiqotlar olib borish, shoirning shaxsiyati hamda ijodini ochib beruvchi xalqaro konferensiyalar o‘tkazish kabi ko‘lamdor maqsadlarni qo‘ygan. Bu yerda shoirning asarlari hamda unga bag‘ishlangan tadqiqotlarni o‘zida jamlagan kutubxona tashkil etilganini qayd etish lozim. Hind diyoridan topilgan, Alisher Navoiy taxallusi ostida yozilgan “Yusuf va Zulayho” dostonining qo‘lyozma nusxasi ham ushbu markazga olib kelingan. Hozirgi paytda markaz ilmiy xodimlari mazkur noyob asarni har tomonlama tadqiq qilmoqda. Yaqin kunlarda ushbu dostonning muallifi haqida aniq va xolis xulosalar e’lon qilinishiga ishonchimiz komil.

Markaz tomonidan Alisher Navoiyning muhtasham haykali o‘rnatilgan ko‘rkam bog‘ barpo etilishi ham tahsin-u e’tirofga loyiqdir.

Alisher Navoiy turkiy tilning barcha lahja, shevalarini ajratmasdan, o‘z asarlarida ulardan unumli foydalanish orqali bu tilning lug‘at boyligini asrab qolish va uning imkoniyatlarini kengaytirishga katta hissa qo‘shdi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarlarida turkiy tilning jamiki balog‘ati, fasohati, hassosiyati, shiddati namoyon bo‘lgan.

Abdurahmon Go‘zal ulug‘ shoirning:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur, –

degan faxriyasining mohiyati va ahamiyatini teran anglaydi. Shu bois u: “Buyuk turk olimi va turkiyning ulug‘ shoiri Alisher Navoiy vafotidan buyon oradan besh yuz yil vaqt o‘tgan bo‘lsada, u o‘zining fikri va shaxsiyati bilan hamon oramizda yashamoqda. Minglab baytlardan iborat lirikasida shoirning o‘ziga xos uslubi, ijodkor shaxsini ko‘rish mumkin. Sharqiy turklar tili va adabiyoti u yaratgan tamallarda yuksaldi. Mabodo Alisher Navoiy unutilsa, turk dunyosi o‘zining asoslaridan birini yo‘qotadi. Bolalarimiz va yoshlarimiz Alisher Navoiyni albatta bilishi va tushunishi kerak. Shuning uchun biz Navoiy kulliyoti ustida ishlashimiz, bu asarlarni turkigo‘y xalqlarning har bir shevasida nashr etishimiz va har bir turkning mazkur asarlarni birday anglashini ta’minlashimiz kerak”, deb yozadi.

O‘z navbatida, biz milliy adabiyotimiz quyoshi hisoblangan Alisher Navoiy ijodini o‘rganish borasida turkiyalik zahmatkash adabiyotshunos Abdurahmon Go‘zal bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotganimizdan mamnunmiz. Uning tashabbusi bilan Turkiyada tashkil qilingan Alisher Navoiy nomidagi tadqiqot va targ‘ibot markazini har tomonlama rivojlantirishda o‘zbek navoiyshunoslari ham munosib hissa qo‘shishiga ishonamiz.



Zulayho ABDURAHMON,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Toza ma’rifat suvi”



Bu – Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning 1914-yilda yozilgan “Adabiyot nadur?” degan manifest xarakteridagi maqolasida qo‘llangan ibora. Adabiyotshunos Naim Karimov haqida maqola yozarkanman, ushbu ifodaga duch kelib qoldim va menga nihoyatda yoqdi.

Cho‘lpon “Adabiyot nadur?” deb o‘zi qo‘ygan savolga: “qonlarimizga qadar singigan qora balchiqlarni tozalaydurgon, o‘tkur yurak kirlarini yuvadirgon toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirgon, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artib tozalaydurgon buloq suvidur”, deb javob beradi. Bu jadid ma’rifatparvarlik adabiyotining butun mundarijasi va maqsadlarini o‘ziga obrazli tarzda qamrab oladi. Ma’rifatli jadid adabiyotining toza ma’rifat suvi Cho‘lpon, Qodiriy, Fitrat, Behbudiy, Ibrat, Avloniylarga qanchalar aloqador bo‘lsa, nainki ularga, ushbu tashbehni “burjua” adabiyotining buloqlari va ma’rifati deb tushuntirishga uringan ilk jadid adabiyotshunosi Abdurahmon Sa’diyga ham nechuk aloqasi bo‘lsa, ularning keyingi barcha izdoshlari va xususan, akademik Naim Karimovga ham shunchalik yaqin va tig‘iz aloqadordir. Akademik Naim Karimovning barcha yozganlarini shu qamrovdor ibora bilan tushuntirmoqchi bo‘lsam, o‘quvchilar ham buning ustida o‘ylanish bosqichiga chiqishlariga ishonchim komil.



“Toza ma’rifat suvi” bizning milliy adabiyotimizning mazmun doirasi va yo‘nalishini aniq-ravshan belgilaydigan ibora. Unda milliy adabiyotimizning asos g‘oyasi mujassam. Adabiyotshunoslarimiz milliy mustaqillik uchun kurash va nihoyat milliy mustaqillik davridagi badiiy adabiyotimiz va san’atimizning bosh va yetakchi maqsadlarini belgilash uchun bir qancha g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlaganlar. Bu jihatdan akademik Naim Karimov bilan doimo yonma-yon va hamqadam bo‘lib ishlab kelgan bilimdon adabiyotshunos olim Begali Qosimovning bir ajoyib fikrini ta’kidlab o‘tgim keladi. U “Mustaqillik adabiyotshunosligi” degan qimmatli asarida, chunonchi, shunday deb yozadi: “Mustaqillik davri adabiyotshunosligining o‘tgan 12 yil davomida qo‘lga kiritgan eng katta yutug‘i ko‘p asrlik adabiyotimizni milliy-estetik asoslarda o‘rganish va baholashning yo‘lga qo‘yilgani bo‘ldi”. Olim yangi davr adabiyotining bosh va bundan keyin ham ko‘p zamonlar yetakchi bo‘lib qoladigan xususiyatini milliy estetik asos deb belgilayotgani bu mash’um “sosrealizm”dan batamom xalos bo‘lganimiz, qutulganimiz va umumjahon adabiyotining izlanishlar yo‘liga chiqqanimiz hamda unga batamom hayot daryosi kabi qo‘shilayotganimizni bildiradi.

Akademik Naim Karimovning mustaqillik davrida yozgan barcha ilmiy-nazariy, tadqiqotchilik yo‘nalishidagi asarlari mana shu milliy estetik tahlil yo‘nalishini aks ettiradi. O‘quvchilarga yaxshi ma’lumki, adabiyotshunoslikdagi bu yo‘nalish G‘arb va umuman, dunyo adabiyotlarida keng tarqalgan va uning Irving Stoun, Stefan Sveyg, Luis Borxes, Andre Morua kabi ajoyib namoyandalari mashhur. Akademik Naim Karimov o‘zbek adabiyotshunosligida ilmiy estetik biografik romanning salmoqli namunalarini yaratdi. Men uning Cho‘lpon, Shayxzoda, Mirtemir, Qodiriy va Hamid Olimjonga bag‘ishlangan asarlarini qiziqib o‘qiganman. Ayniqsa, Hamid Olimjon va Oybek haqidagi asarlarini mubolag‘asiz adabiyotshunoslikning shoh asarlari deb sanaganman.

Naim Karimov zamonlarning ko‘p alg‘ov-dalg‘ovlarini ko‘rdi, boshidan kechirdi. Lekin u Oybek, Zulfiya, Zarifa Saidnosirova, G‘afur G‘ulom, Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafuddinov singari ustozmurabbiylar yonida yurib, ular bilan hamnafas bo‘lib, yana Naim Karimovligicha qoldi. O‘ziga xos olim, adabiyotshunos ekanligini tinimsiz namoyon qilib turdi.

Naim Karimov o‘zbek adabiyotshunosligida uzoq samarali yo‘lni bosib o‘tdi. U jadid va sho‘ro adabiyotshunosligini ich-ichidan yoritadigan materiallar, ma’lumotlar, rang-barang faktlarni xuddi dono xazinabon kabi yillar davomida sinchiklab, avaylab, ardoqlab yig‘ib bordi. Yillar o‘tib u chin qomuschi olimga aylandi. Uning keyingi o‘ttiz-qirq yillarni qamrab oladigan asarlari xuddi ensiklopedik asarlar kabi o‘qiladi. Men ayniqsa, uning “Adabiyot va tarixiy jarayon”, “Uch buyuk siymo: Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek” deb nomlangan fundamental asarlarini juda qadrlayman. Hozirgi adabiyotshunoslik shunday yuqori ilmiy nazariy saviyada yozilishi kerak deb hisoblayman.

Istiqlol davrida Naim Karimovning talanti ochildi. Unga xudo ilhom berdi. Tinimsiz kompyuterda o‘tirib, muk tushib yozdi. Tinmay adabiy targ‘ibot bilan shug‘ullandi. Yoshlarni adabiyotga qiziqtirdi. Turli jamiyatlarda ilmiy-ma’rifiy ma’ruzalar o‘qidi. Jadid adabiyoti g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga singdirib bordi, o‘zi kabi g‘ayratli, ilmga berilgan yosh olimlarni tarbiyalab voyaga yetkazdi.

Akademik Naim Karimovning “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyini tashkil etishdagi taklif-tashabbuslari tahsin va e’tiborga loyiqdir. Hozirgi muzey bo‘limlari va ekspozitsiyalarining yuksak talqinlarida akademik Naim Karimovning jonbozligi, salohiyati ufurib turadi.

U adabiyotshunoslik ilgari hech qachon istifoda qilolmagan, buning hech qanday imkoniyati ham bo‘lmagan, ammo tarixan nihoyatda qimmatli faktlar, voqea-hodisalarni axtarib topdi va o‘z asarlarida aks ettirdi. Bu jihatdan u Izzat Sulton kabi ulkan adabiyotshunoslar izidan bordi. Zavol bo‘lgan adabiy nomlar, tahqirlangan taqdirlarni tikladi. Pirovardida olim jadid madaniyatining yirik mutaxassislaridan biriga aylandi. Uning mehnatlari davlatimizning qator-qator unvonlari va mukofotlari bilan munosib taqdirlandi.

Zahmatkash olimimizning asarlari faktlarga nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. U o‘zbek adabiyotshunosligining xalqaro miqyoslarga chiqishi uchun ham jon kuydirar, olmon, ozarbayjon, turk, rus, tatar olimlari bilan muloqotlar olib borardi.

U yangilanayotgan o‘zbek adabiyoti “jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi” deb qattiq ishonar va shu yo‘lda ter to‘kardi. Olim unutilgan adabiy muhitlarni tiriltirdi, jonlantirdi, ularga yangi zamonlarning hayot nafasini bag‘ishladi. Men uni Iso alayhissalomga mengzamoqchi emasman. Ammo milliy adabiyotimizga u Iso nafasini olib kirdi va qora tuproq tagida qolganlarga so‘zi bilan jon bag‘ishladi.

Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

UYG‘OQ XOTIRA

“Magar chinor bo‘lsang, chinordek yasha...”

Ma’lumki, adabiyotimizning ildizlari eramizdan oldingi asrlarga borib taqaladi. Bu tilda yaratilgan muhtasham nafis so‘z san’ati durdonalari dunyo badiiy tafakkuri xazinasidan o‘zining muhtaram va musallam o‘rnini topgan va jahon ahlining hayrat-u havasiga manba bo‘lib kelmoqda. Bu beqiyos ganjinani tadqiq etish va o‘rganishning qonuniy yo‘sini sifatida tilshunoslik kabi ko‘hna adabiyotshunoslik deyiladigan fan yuzaga kelgan. O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik Naim Karimov o‘zbek adabiyotshunosligiga, uning taraqqiyot-u takomiliga behad salmoqli hissa qo‘shgan va bu ilmning chinakam chinoriga aylangan zahmatkash olimlarimizdan biridir.

Naim aka 1958-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetida o‘zbek adabiyoti bo‘yicha aspiranturani tamomlagach, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida kichik ilmiy xodim sifatida ish boshlagan bo‘lsa, uzun va benihoya sermazmun umrining so‘ngigacha uning ilmiy faoliyati asosan shu institut bilan muntazam bog‘liq bo‘ldi. Naim Karimov “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi rayosati raisi (1999), Mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi raisi (1999), “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” davlat muzeyining direktori (2001) etib tayinlanganidan keyin ham institut ilmiy faoliyatidan biror soniya chetda turgani yo‘q, aksincha ilmiy izlanishlari va mashaqqatli ilmiy tadqiqotlarini muntazam va muttasil davom ettirdi. Institut ilmiy kengashining a’zosi sifatida filologiya ilmiga daxldor muammolar muhokamalarida, ular adabiyotshunoslikka oid bo‘ladigan eng katta yutug‘i ko‘p asrlik adabiyotimizni milliy-estetik asoslarda o‘rganish va baholashning yo‘lga qo‘yilgani bo‘ldi”. Olim yangi davr adabiyotining bosh va bundan keyin ham ko‘p zamonlar yetakchi bo‘lib qoladigan xususiyatini milliy estetik asos deb belgilayotgani bu mash’um “sosrealizm”dan batamom xalos bo‘lganimiz, qutulganimiz va umumjahon adabiyotining izlanishlar yo‘liga chiqqanimiz hamda unga batamom hayot daryosi kabi qo‘shilayotganimizni bildiradi.

Akademik Naim Karimovning mustaqillik davrida yozgan barcha ilmiy-nazariy, tadqiqotchilik yo‘nalishidagi asarlari mana shu milliy estetik tahlil yo‘nalishini aks ettiradi. O‘quvchilarga yaxshi ma’lumki, adabiyotshunoslikdagi bu yo‘nalish G‘arb va umuman, dunyo adabiyotlarida keng tarqalgan va uning Irving Stoun, Stefan Sveyg, Luis Borxes, Andre Morua kabi ajoyib namoyandalari mashhur. Akademik Naim Karimov o‘zbek adabiyotshunosligida ilmiy estetik biografik romanning salmoqli namunalarini yaratdi. Men uning Cho‘lpon, Shayxzoda, Mirtemir, Qodiriy va Hamid Olimjonga bag‘ishlangan asarlarini qiziqib o‘qiganman. Ayniqsa, Hamid Olimjon va Oybek haqidagi asarlarini mubolag‘asiz adabiyotshunoslikning shoh asarlari deb sanaganman.

Naim Karimov zamonlarning ko‘p alg‘ov-dalg‘ovlarini ko‘rdi, boshidan kechirdi. Lekin u Oybek, Zulfiya, Zarifa Saidnosirova, G‘afur G‘ulom, Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafuddinov singari ustozmi, tilshunoslikkami yoxud folklorshunoslikkami, albatta, o‘zining o‘rinli va foydali taklif-tavsiyalari, ilmiy mulohazalarini bildirar, masalaning yechimi bo‘yicha maslahatlarini darig‘ tutmas edi.

Umuman, Naim Karimov XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan bilimdoni, zukko sinchisi sifatida bu davrdagi yuksalish-u evrilishlarni, yorug‘lig-u zulumotlarni hijjalab o‘rgangan va xolis ilmiy xulosalar bera olgan tug‘ma olim edi. U “Purviqor cho‘qqilardan biri” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni qayd etadi: “XX asr o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida o‘rinni egallaydi. Shu davrda shunday zabardast shoir va yozuvchilar avlodi yetishib chiqdiki, boshqa biror asrda bunday hayratlanarli hol ro‘y bergan emas”.

Zahmatkash allomaning turli arxiv va muzeylardagi materiallarni qidirib topib, ularni sinchiklab o‘rganib, jadidlar, millatparvar ziyolilar ijodi va faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab chala yoki yanglish ma’lumotlarga to‘kislik va oydinlik kiritganini mamnuniyat bilan ta’kidlamoq joiz. Ana shunday mashaqqatlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan qator-qator maqola va boshqa asarlarida tarixiy haqiqatni rost va raso o‘zanlarga solib qo‘ygani ham uning adolat yo‘lidagi bikir va butun jidd-u jahdining bir ko‘rinishidir.

Atoqli amerika adibi Irving Stoun Oksford universitetida “Biografik qissa haqida” mavzusida o‘qigan ma’ruzasida quyidagilarni ta’kidlagan: “Biografik qissa muallifi uchun tarix tog‘ emas, daryodir. Hattoki yangi faktlarni izlab topish imkoniyati qolmagan taqdirda ham, baribir, eski faktlarni yangicha qabul qilish, zamonaviy saviyada talqin etish imkoniyatlari bo‘ladi. Bu yangi talqin esa eski tarixni yangi nur bilan yoritadi va unga yangi ma’no baxsh etadi. Shuni esda saqlash lozimki, biografik qissaning muallifi arxeologga o‘xshaydigan odam, u shunchaki belkurak ko‘tarib olgan odam emas. Uning peshonasidan oqqan ter yoxud qo‘llarining qavargani – bu haqiqiy ishga endigina kirisha boshlaganining oddiy belgisi, xolos. U hali yangi ochilgan materiallarni talqin qilib bermog‘i kerak”.

Shu ma’noda “Usmon Nosir” ma’rifiy-biografik romani Naim Karimovning “Usmon Nosir: hayotiy lavhalar, hujjatlar, rivoyatlar” (1993), “Usmon Nosirning so‘nggi kunlari” (1994) nomli kitoblari asosida qayta yozilgan, juda ko‘p yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan. Demakki, 2022-yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan bu ma’rifiy-biografik roman olimning qariyb o‘ttiz yillik ilmiy izlanishlarining, fidokorona, mashaqqatli mehnatlarining samarasidir. Fidoyi va sarhadsiz bilim sohibi boshqa ma’rifiy-biografik romanlaridagi singari bu romanni yaratishda ham tarix qa’rini, unda yashiringan sir-u sinoatlarni oshkor qilmoqqa, chin haqiqatni tiklamoqqa bel bog‘lagan, butun umrini shu ezgu maqsad ro‘yobiga baxshida qilgan, Irving Stoun ta’biri bilan aytganda, arxeologdir.

Romanning muqaddimasida Naim Karimov hech bir iddaosiz quyidagi gaplarni aytib o‘tishni joiz bilgan: “Kamina Usmon Nosir to‘g‘risida ilmiy-ommabop asar yozish uchun shoirning juda ko‘p barhayot zamondoshlari bilan uchrashganman, uning Qo‘qon, Samarqand va Kemerovodagi izlaridan yurganman, uning qatag‘on qilinish tarixi va jarayonini Toshkent, Kemerovo va Moskvadagi arxivlarga borib o‘rganganman”. Romanning birinchi bo‘limidagi olimning quyidagi gaplarida har qanday o‘quvchi qalbini larzaga soluvchi o‘tkir va o‘rinli istehzo va kinoyaning keskir kuchini, yondiruvchi olovini sezmaslik, ko‘rmaslik va ichdan his qilmaslikning imkoni yo‘q. Lisoniy-badiiy ifodaning bu qadar tugalligidan hayratlanmaslik mumkin emas: “Usmonnosirshunoslar” shunday rivoyatnamo gaplari bilan shoir haqidagi haqiqat ustiga yolg‘on ko‘ylag-u yolg‘on to‘nlarni, boshiga esa yolg‘on do‘ppilarni kiydirib tashlaganlarki, natijada Haqiqat janobi oliylarining hatto porloq ko‘zlari ham ko‘rinmay qolgan”. Ko‘rinib turibdiki, zakiy olim va adibning asl va oliy muddaosi “Haqiqat janobi oliylarining porloq ko‘zlarini” adl va raso ko‘rsatishdan iborat.

Olimning bir o‘zi tomonidan (odatda bunday salmoqli asarlar yirik jamoalar tomonidan tayyorlanadi) yaratilgan “Abdulla Qodiriy zamondoshlari” ensiklopediyasi adabiyotshunosligimizni, birinchi navbatda, qodiriyshunosligimizni boyitgan ulkan va muhtasham ishlardandir. Unda Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi bilan u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan 254 nafar kishining muxtasar tarjimayi holi jamlangan. Bu mo‘tabar va muazzam kitobni Naim Karimovning o‘zbek jadidshunosligi tadqiqi va targ‘ibi yo‘lidagi iddaosiz jasorati deyish mumkin. Ushbu asar adabiyot sohasida Davlat mukofoti bilan taqdirlangani ham bejiz emas.

Dangal aytish zarurki, akademik Naim Karimov qalamiga mansub 2000 dan ortiq katta-kichik asarlar uning adabiyot, fan, madaniyat, Vatan va millat taraqqiyoti yo‘lidagi betakror fidoyiligining yorqin shahodatidir. Ana shu shahodat uni, hech bir ikkilanmay, adabiyotshunosligimizning chinakam chinori deyishga imkon beradi.

Nizomiddin MAHMUDOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori,
filologiya fanlari doktori, professor

Taniqli adabiyotshunos olim, jamoat arbobi Naim Fatihovich Karimov (1932-yil 12-dekabr – 2023-yil 17-sentyabr) Toshkentda, ziyoli oilada tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi (1996). Filologiya fanlari doktori (1993), professor (1994). U 1955-yilda SAGU (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetini tamomlagan.

Olim salkam ellik yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim, bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishladi. XX asr o‘zbek adabiyoti va uning yirik vakillari ijodini milliy g‘oya mezonlari asosida o‘rganish ishini birinchilardan bo‘lib boshlab berdi. Chunonchi, jadid adabiyoti, uning hur fikrli, adolatparvar vakillari Hamza, Fitrat, Cho‘lpon va boshqalar ijodi haqidagi o‘nlab kitob, maqolalar muallifi. Matnshunos sifatida Oybekning 20, G‘afur G‘ulomning 12, Hamid Olimjonning 10, Hamzaning 5 jildli to‘la asarlarini tayyorlash va nashr etishda ishtirok etgan.

Naim Karimov mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha jamoatchilik komissiyasi raisi (1999-yildan beri) sifatida Toshkentda Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuasini bunyod etish (2001), shuningdek, Qatag‘on qurbonlari muzeyini tashkil qilishda (2002) jamoatchilik ishlarini amalga oshirgan.



HIKOYA

BUYUK YOLG‘IZLIK


Shahodat ULUG‘

U ayqirgan asov to‘lqinlarni yaxshi ko‘rardi. Garchi shunday bo‘lsa-da, ertaga baribir dengizni ko‘zi qiyib, Holland yurtini tashlab ketadi…

Sxiphol aeroportida uni Berlinga kuzatib qo‘ydim.

Qo‘lin siltab, boshin olib ketdi u.

Oradan picha vaqt o‘tib, undan qisqagina yozilgan bir maktub oldim. Xatda Keyt Kayzer yurtiga omon-eson yetib borgani to‘g‘risida yozgandi.



Rasmni sun’iy intellekt chizgan.

Ikki oy o‘tib, undan tag‘in bir xat oldim. Uning bu quvonchli xabari meni sergak torttirdi.

Yoniq hayotini har narsadan ustun qo‘yib, izzat-nafsini avaylab parvarish etgan Keyt shu kunlarda Myunxenda umrguzaronlik qilarkan, yurak qasrini buzib, bir kuy bastalagani haqida yonib yozgandi. Maktubga ilova shaklida kuni kecha bastalagan “Buyuk yolg‘izlik” nomli musiqiy fusunni qo‘shib jo‘natarkan, mening Myunxenga yetib kelishimni ham so‘rab qolgandi…

Men esa inson tafakkuri hamda qalbining ilohiy qudratiga tahsinlar o‘qib, u yaratgan musiqiy fusun ichida sarosar kezinaman.

Keling, men Sizga bir hikoyani so‘zlab beray. Shunda, menda ne hollar kechayotganini anglarsiz, balki.

Bu vayronkor shamol boshga balo bo‘ldi. Undan kuch olgan bulutlar bejo kezinaverib, vahm qo‘zg‘ay boshladi. Dengizchi-bahriylarning aytishicha, shamol dovul chaqirmoqda edi. Bandargohdagi yo‘lovchilarni vahm bosib, shamolning shashti pasayishini kutishdan boshqa chora topolmay, mum tishlab qolishdi.

Bizning guzar Bandargohning biqinida joylashgan. Men uyga qaytayotgandim. Qarasam, shundoq ro‘paramda Keyt ko‘rindi. U oqish-gunafsha rangli chakmon kiyib olgan qizaloqni yetaklab kelayotgandi. Gulg‘uncha qiz esa qo‘lidagi qopchig‘ini qisib-qimtib Keytga pildirab ergashadi. Hoynahoy, qizaloq biror tanishiniki bo‘lsa kerak, chunki Keyt farzandsiz edi-da.

– Voy, senmisan? – Keytning quyuq qoshlari yoydek egilib, birdan manglayi tomon ko‘tarildi.

– Menman, – dedim.

– Ko‘pdan ko‘rinmaysan?

– Ha, endi yuribman-da. O‘zing salomatmisan?

– Tuzukman, tuzukman.

– Ha…

– Ertaga Do‘ychlandga shaylanib turibman.

Birdan ko‘nglim g‘ash tortib so‘radim:

– Do‘ychlandga? Nega?!

Keytning yuzi tundlashdi.

Bir nima degisi bor, lekin menga qanday anglatishni bilmayotir.

– Nima bo‘ldi, gapirsang-chi? – Xavotirim oshib so‘radim.

– Onam og‘rib qolgan, bormasam bo‘lmaydi.

Uning 87 yashar onasi Myunxenda yashaydi. Keytning kasbi bastakor, millati olmon, u Hirard ismli holland zobitiga turmushga chiqqandi.

– Ha, ha, umr bersin, umr bersin! O‘zi shunday ekan, qariyalar og‘rib turisharkan, – deyman unga dalda bo‘lib. Axir, o‘zimning ham 90 yoshdan oshgan onam O‘zbekistonda qolgan. Mushtiparimning tez-tez og‘rib turishini ko‘z oldimga keltirarkanman, birdan hushim uchib, aqlim shoshadi. “Ishqilib manglayimizga onalarimiz omon bo‘lsinlar!” U birdan lov etib yonib ketdi-yu, ikki yonog‘i qip-qizil alvon tusini oldi. Keyt oilada yolg‘iz farzand, otasi ikki yil burun qazo qilgandi. U uch oyda bir Myunxenga onasini ko‘rgani borib turadi. Keyingi paytlar uning hayoti g‘ussali kechdi, mana, ikki yildirki, xo‘jayini oshqozon saratoni xastaligi bilan olishib keladi. Uning zabun holini ko‘rib, ko‘nglim buzildi. Lekin buni o‘ziga sira bildirmadim. Men u bilan tez-tez ko‘rishib turaman. Keyt zakoli, vazmin va juda kamgap ayol edi, biroq beqiyos bir iltifot bilan mudom baodob suhbat qurardi. Biz picha gaplashib turdik-da, so‘ng xayrlashdik.

Xavotirim oshib, ortidan qarab qolaman. Tunda chaqmoq chaqib, otashqaldiroqdan so‘ng yomg‘ir sharros quyib, borliqni savalab chiqqandi. Namlik tarqamagan, dengiz shamoli muzdek hovurni yuzimga urgan chog‘ Vaqtning shamolida to‘zg‘ib ketaman.

* * *

Men unib-o‘sgan Bo‘diq guzarida bir kampir yashab o‘tgan. Guzardagilar uni “qovurmochfurush” atashsa-da, Imqol momo qovurmoch sotmasdi, balki vaqti-vaqti bilan qatlama pishirib, so‘ng qovurmoch qovurib, mahalladagi bolalarga ulashar edi. O‘sha kampir bizga qo‘shni edi. Bir kuni maktabdan qaytayotsam, u meni imlab chaqirdi. Quloq ossam, sho‘rlik changakka ilingan suzma xaltani ololmay turgan ekan. Shotini qo‘yib, suzmani olib berdim. Momo duoyi jonimni qilib, qaynoq bug‘ ko‘tarilib turgan qatlamani qo‘limga tutdi. Men olmadim. Shu deng, birov qo‘limga yegulik tutsa, yeb ketavermayman. Undan tashqari momoga rahmim kelardi. Sho‘rlik qari holi bilan surpa ochib, xamir qorigan. Taxta-o‘qloqda, bilmam, qancha urinib zuvalalarni yoygan. O‘choqqa qozon osib, o‘t qalagan, so‘ng qatlamani pishirgan. Shu hol ko‘z oldimdan sira ketmay qoldi. Cholining vafotidan so‘ng ikki qizini ham turmushga chiqargandi. Qizlari onasining holidan tez-tez xabar olib turishsa-da, baribir, barcha ro‘zg‘or ishi momoning zimmasida edi. Qartaygan jussasi xuddi yerdan chalpak yeganday, birdan ko‘zimga aybaki va juda mushtipar ko‘rinib ketdi. Men Imqol momomni yaxshi ko‘rardim, hamda juda-juda… Undan sira ko‘ngil uzolmasdim. Keyinchalik men chetda yasharkanman, allaqachonlar olamdan o‘tib ketgan shu mastura ayolni sira unutmadim. Unutolmadim. Xullas, qatlamani olmay jo‘nayotsam, oyog‘im tagida xazonlar shitiri qulog‘imga yetib keldi. Qarasam, daraxtlar biryo‘la bag‘rini to‘kkan, yer xazonga g‘arq edi. Chopqillab sumkamni uyga qo‘yib, apil-tapil ovqatlanib oldim-da, qaytib momoning uyiga chiqdim. Xazonlarni bir pasda supurib, kanop xaltalarga joylab qo‘ydim. Ochiq ayvonda turgan govmishga suv tutdim. Oshxonaga mo‘ralasam, momo almisoqdan qolgan chiroqning piligini puf-puflab tozalayotgan ekan. Shundan so‘ng qo‘sh pirmiz piliklarini ham yangilab qo‘ydi. Bir payt momo uyiga kirib, bir otkritka olib chiqqach, menga qarab, “…ay, Shahlo qizim, mani savodim yo‘q, shuni sanga bera qolay, balam. Bu – manim sanga hadyam bo‘lsin! Oxir, sani hikoya yozadi, deb eshitganman. Bunga bir nimalar yozgin-a”, deya otkritkani mening qo‘limga tutdi. Quvonchim ichimga sig‘may, otkritkani ko‘ksimga bosgancha hovliqib, uyimizga kirdim. Axir Imqol momom menga evazsiz, biroq hadsiz quvonch hadya qilgandi-da!

Otkritkada to‘p-to‘p bo‘lib, endi ochilayotgan ko‘m-ko‘k gul g‘unchalarga och moviy rangli kapalak qo‘nib turgani tasvirlangandi. Ko‘zyoshim potrab chiqdi, nafasim birdan bo‘g‘zimga tiqilib qolsa bo‘ladimi, negaligini bilmayman, yutinib, ho‘ngrab yig‘lab yubordim. Men Imqol momoni yaxshi ko‘rardim. Undan sira ko‘ngil uzolmasdim. Momo ham menga bo‘lakcha mehr qo‘ygandi. Mitti jussam, nur kabi tengi yo‘q baxt-saodatga ko‘milib turaverdim, turaverdim…

Bir payt qayroq tosh yotqizilgan yo‘lakda bir nima yiltillay boshladi… Tikilib qarasam, billur shudring titranyapti… Va bu titroq shabnam Imqol momomning kipriklaridagi yoshga juda o‘xshardi.

Birdan shisha jarangi qulog‘imga yetib keldi-yu men tomchi tomayotgan shaffof shabnamni qoralay boshladim.

* * *

Taqdir taqozosi bilan Niderlandiyada yashay boshladik. Mana, Imqol momom menga hadya etgan o‘sha otkritka hozir ham xotira daftarimning qatida turipti.

Shanba kuni uyimizga Keyt keldi. U to‘p-to‘p bo‘lib, endi ochilayotgan ko‘m-ko‘k gul g‘uncha-yu, mitti kapalakli ko‘k ko‘ylak kiyib olgandi. Ko‘zim birdan yonib ketdi. Uning ko‘ylagidagi to‘p-to‘p gullar va ko‘k rangli kapalaklar Imqol momom menga hadya etgan otkritkadagi manzaraga juda o‘xshab ketardi…

Men uning g‘amgin chehrasiga boqdim. U judayam ko‘hlik, biroq g‘ussa komiga botib qolganga o‘xshardi.

Ko‘zlari cho‘kib ketibdi.

Chehrasi juda so‘lg‘in.

Bu hol menda bir kechinma qo‘zg‘adi. Vayronkor kechinma…

Ha, bir boshqacha holat edi bu. Hamda juda-juda bo‘lakcha edi…

Uch oy burun uning onasi vafot etgandi. Keyt tinmay onasi haqida yonib gapirdi. U uyiga ketgach, men ham anchagacha o‘zimga kelolmay, qiynalib yurdim. Ko‘p o‘tmay, ey voh, u eridan ajraldi. Attang, uning rafiqi oshqozon saratoniga davo topolmay, bevaqt olamdan o‘tdi. Keyt so‘ppayib qoldi. Uni Hirardning qarindoshlari sira chiqishtirmadi, chunki orada mulk masalasi ham bor edi-da. U hech vaqo talashmadi, Hirarddan qolgan mulkni qoldirib, o‘z yurtiga boshin olib, Vaqtning shamolida to‘zg‘ib ketdi.

* * *

Amsterdamdan uyga poyezdda qaytayotgandim. Chekuvchilar uchun mo‘ljallangan kupeda bir odam sherigi bilan chekib turgan ekan, o‘sha ko‘zimga issiq ko‘rindi. U Keytning marhum eri Hirardga juda o‘xshardi. Lol hamda behol turdim! Hirard o‘lmagandir, ehtimol! Axir shunday bo‘ladi-ku: kimdir kimnidir mudom esga solib turadi.

Dengiz ham uh tortgandek bo‘ldi. Mahzun tortib uyga qaytdim. Biroz dam olib elektron pochtamni ochgandim, Keyt Kayzerdan maktub kelganiga ko‘zim tushdi. U Do‘ychlandda umrguzaronlik qilarkan, meni Myunxenga taklif etgandi. Aslida u yurak qasrini buzib, bir kuy bastalagani haqida yonib yozgandi. Maktubga ilova qilib, o‘zi bastalagan musiqani ham qo‘shib jo‘natgandi. Men musiqiy fusun ichida sarosar kezinarkanman, avvaliga jigar-bag‘rim vayron bo‘lib, qancha turganimni sezmay qoldim. Asta-asta derazamdan mo‘ralayotgan oftob oqib ichkariga kirdi va men tashqariga chiqdim. Qorachig‘im yiltillay boshladi. Kuy ichida nimadir bor edi va u olmosga juda o‘xshardi, boqsang aksing ko‘rinar edi unda.

Koinot jim-jit va zamin kimsasiz edi.

Bu kimsasizlik meni ezib yubordi!

Va shunda jigarimning qahvasi chakkillay boshladi…

Va birdan o‘rtanib ketdim.

Qayroq tosh yotqizilgan yo‘lakda bir nima yiltillay boshladi… Tikilib qarasam, billur shudring titranayotgan ekan. Va bu titroq shabnam Imqol momo va Keytning kipriklaridagi yoshga o‘xshab ketardi.

Kuy tobora avj pardada yangray boshladi.

…Odamlar, ular buncha gavjumlar! Va ayni paytda, ular juda yolg‘izlar! Barchasi ruhan yolg‘izlar!

Musiqada o‘sha BUYUK YOLG‘IZLIK madh etilgandi. Kuy ohista-asta hamda shikasta tarala boshladi… Va, tag‘in, men buni aytmasam bo‘lmaydi, chunki, bu jonimni yomon o‘rtaydi.

…Odamlar gavjumlar! Va ayni paytda ular juda yolg‘izlar! Ruhan yolg‘iz ularning bari! Mana shu insoniy g‘ussani Keyt Kayzer kuy ichra so‘nggi darojotga ko‘tarib, avj pardalarida namoyish qila bilgandi. U buning uddasidan chiqqandi.

Men xasta kimsaday yo‘lakda sudralib qoldim.

Qarg‘alar qag‘illab duv ko‘tarildilar.

Va men o‘zimni o‘nglab oldim.

G‘arbdan hayot sharpasi – oqchorloqlar qaynab-toshib, tepamdan uchib o‘tayotgan mahal, kuy yanada avj pardalarida yuksaklarga ko‘tarila-ko‘tarila, samoni quchib ketdi.



MUALLIF HAQIDA: Shahodat ULUG‘ – 1970-yili Navoiy viloyatining Nurota shahrida tug‘ilgan. U “Aftondil”, “Suyunchi”, “Shams, Qamar – Qurbongul” nomli dostonlar, “Amsterdam xotiralari” lavhalari hamda Xorazmshohlar tarixidan hikoya qiluvchi uch romandan iborat – “Jayhun epkinlari”, “Sen yig‘lama faqat”, “Xaloskor sulton Qutuz” – trilogiyasi muallifi.


Adiba 2015-yil Londonda o‘tkazilgan YevroOsiyo “Kitob forumi” festivali, 2023-yilda o‘tkazilgan Mahmud Koshg‘ariy nomli xalqaro turkiy tilli hikoyanavislar tanlovi g‘olibi. Adiba hozirda Niderlandiyaning Amsterdam shahrida yashab ijod qiladi.

YANGI NASHR

Mangu yo‘ldosh va esh tuyg‘ular

“Insonlarning bir-birlarini sevib, hurmat-ehtirom ko‘rsatishlarida san’atga teng keladigan unsur yo‘q. Qo‘lingizdagi ushbu asar ana shu ezgu tuyg‘u, tushuncha va g‘oyalarning hosilasidir. Mansub ekanimizdan sharaf tuyganimiz – buyuk millatimizning eng qadimiy va eng inja san’ati bo‘lmish she’r san’atining bir uchidan tutishdek baxtiyorlik hamisha menga hamroh. Xalqimiz inja ruhining eng go‘zal tazohuri sanalgan she’r san’ati Turkistonning tengsiz gulistonlarida va so‘lim makonlarida o‘zgacha royiha (muattar hid) va o‘zgacha lazzat ila qarshimizga chiqdi. Ha, biz bu favqulodda go‘zallikka va jozibaga begona qololmas edik. Xalqimiz azaldan qardosh, nasldosh, dildosh o‘zbeklarning she’r san’atini yanada yaqindan tanimog‘i, undan bahramand bo‘lmog‘i lozim edi...”

Mazkur iqtibos hassos va xokisor shoirimiz Yo‘ldosh Eshbekning yaqinda Anqara shahridagi “Eysem” nashriyotida chop etilgan “Mangu masofa” (“Ebedi Mesafe”) nomli kitobiga yozilgan so‘zboshidan keltirildi.



Ha, o‘zbek she’riyatiga oshno bo‘lgan ko‘ngilli bir tadqiqotchi, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha qator tadqiqotlar muallifi hisoblangan professor Ertug‘rul Yaman bu go‘zallik, joziba, hayratdan o‘z millatdoshlarini ham bahramand qilmoq niyatida ushbu ezgu ishga qo‘l urgan.

Kitobning o‘ziga xos jihatlaridan biri – unda shoir Yo‘ldosh Eshbekning she’rlari turk o‘quvchilariga oson bo‘lgan transkripsiyada asliyatda, ikkinchi sahifada esa tarjimada berilgan. Bu o‘quvchiga she’rning asl matnini solishtirib o‘qish imkonini beradi. Tarjimon va musannif kitob avvaliga shoirimizning qadim ohanglarda yozilgan, biz ham talabalik paytimizda jo‘r bo‘lib o‘qiganimiz – “Seni so‘roqlayman” she’rini qo‘ygan:

Ostonangga dilimning
Torlarini boyladim.
Men bir dunyo suluvdan
Sen suluvni sayladim.

Bu quvonchli xabar o‘zbek tilining, o‘zbek she’riyatining, qolaversa, O‘zbekistonimizning jahon miqyosidagi e’tirofi va e’tibori ifodasi, deyish mumkin.

Abdumurod TILAVOV,
filologiya fanlari nomzodi

YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI

AGITATSIYA – ommani turli maqsadlar va siyosiy harakatlarga chorlovchi, odamlarning kayfiyati hamda ongiga kishi bilmas darajada ta’sir ko‘rsatuvchi targ‘ibot shakli. Uning og‘zaki, bosma va boshqa turlari mavjud.





BARBERSHOP – sartaroshxonalarning bir turi hisoblanib, uning o‘ziga xos jihati mijozlarning asosiy qismini erkak kishilar tashkil etishidadir.

FRANSHIZA – tadbirkor hamda muvaffaqiyatli biznes o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv hisoblanib, ushbu kelishuv mashhur brend va mahsulotlar, shuningdek, biznes modelidan ma’lum haq evaziga foydalanish imkonini beradi.



FRILANS – biror bir yollanma ishchining doimiy ish joyi – ofisga bog‘lanmagan tarzda mustaqil shaklda, masofadan turib amalga oshiradigan ishidir. Frilanser, ya’ni mustaqil ravishda masofadan ishlovchi yollanma xodim – buyurtmalarni o‘zi izlab topadi hamda ish beruvchi bilan kelishuvga asosan belgilangan ishlarni bajaradi.



Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** *manziliga yuborishlarini so‘raymiz.*



“TARAQQIY”DAN “JADID”GACHA



Boshlanishi 1-sahifada.

Jadidlar shu allomaning “Tarjimon” (1883–1914) gazetasini o‘qib, uning muxlisi va muhibiga aylanishdi. Gazetaning yo‘li, maslagi va maqsadi aniq edi: “Tarjimon” – har turli ish, ahvol va ixtilofga “haqqoniyat” va “mumkiniyat” jihatidan boqajakdir. “Tarjimon” tavhidi lison, tavhidi afkor va maorifi milliya masalalarida g‘ayrati doimiyda bo‘lajakdir. “Tarjimon” – har na so‘ylar va yozar bo‘lsa, bu kunda millatning anglami, idrok va qabul etishi suratda arz va bayon etajakdir”. Garchand Turkistonda “Tarjimon”ning o‘quvchilari ko‘p bo‘lsa-da, dastlabki paytlar gazetada turkistonlik yozuvchilarning chiqishlari kam kuzatildi. Biroq XX asrning o‘ninchi yillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy (Samarqand), Oxund mulla Mavdud Ohimov (Toshkand), Mirhusayn Mirrahimov (Qo‘qon), Abduqodir Shakuriy (Samarqand), Hoji Mu’in (Samarqand), Qozi Ziyouddin Mahmud ibn Domla va mudarris Fayzrahmat (Buxoro) nomlari gazetada ko‘zga tashlana boshladi. Mualliflar ba’zan maqola-xabar yozishsa, ayrim hollarda o‘zlarining eng muhim savollariga javob olish niyatida “Tarjimon”-ga maktublar yo‘llaydi. Abdulhamid Cho‘lpon 1913-yili Ismoil G‘aspraliga yozgan maktubida “Shalola”, “Turk yurdi”, “Shahbal”, “Tarjimon”, “Vaqt” va “Iqbol” kabi jadid qardoshlarning gazeta va jurnallarini yodga oladi, ularni o‘qib borayotganini aytadi.

Turkiston ziyolilari “Tarjimon”dan juda mamnun bo‘ladilar. Deylik, shu mamnuniyatni toshkentlik shoir Karimbek Kamiy “Mo‘tabar “Tarjumon” va Ismoilbek G‘asprali janoblari haqqinda” degan she’rida izhor etdi. Unda gazetaning barchaga manzuru maqbul ekani, undan o‘quvchi “hilm-u odob-u maosh-u ilm-u fan” o‘rganishi mumkinligini ta’kidlab, “Har hurufi gul kabi, har nuqtasi g‘uncha misol, Xush tamosho istayanlarg‘a guliston “Tarjimon”, deb yozdi. I.G‘asprali va “Tarjimon”ning to‘rt tarafga sochgan fikrlari, ilg‘or qarashlari, jadidona ruhiyatli fikrlari barchaning yuragidan birdek o‘rin oldi. Jadidshunos Begali Qosimov o‘rinli ta’kidlaganidek, “Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar”. G‘aspraliga ergashar va “Tarjimon”ini e’zozlar edilar.

Turkistonlik jadidlar I.G‘asprlining “Tarjimon” gazetasidan har vaqt saboq oldi. Keyinchalik esa, 1906-yili o‘zlarining birinchi “Taraqqiy” gazetasini chiqarishdi. Yangi gazetani ham birinchi bo‘lib “Tarjimon” tabrikladi. “Turkistonning bunday taraqqiyparvar bir gazetaga ko‘pdan beri ehtiyoji bor edi”, deb yozdi. Biroq “jadidlarning eng suyukli va to‘ng‘ich gazetasi”ning umri qisqa bo‘ldi. Yigirmata soni chiqqandan keyin chor hukumati tomonidan yopib qo‘yiladi va muharriri qamoqqa olinadi.

Shundan keyin Munavvar qorining “Xurshid” (1906-yil sentyabr), Abdulla Avloniyning “Shuhrat” (1907-yil dekabr) gazetalari chop etiladi. Biroq bu gazetalar faoliyati ham uzoqqa cho‘zilmaydi. “Tarjimon” (1907-yil, 14-son) bu xususda ham yozdi: “Matbuotimizda taassuf bo‘lgan bir hol-da bordir: bu Toshkandda chiqqan “Taraqqiy” va “Xurshid” do‘stlarimizning taqiqlanishi. O‘rta Osiyo uchun rasmiy bo‘lgan “Turkiston gazeti” yetarli emas”. O‘z g‘oyalari, maslaklari targ‘ibi uchun naqadar foydali ekanini chuqur anglagan jadidlar gazetachilik jabhasida sa’y-harakatdan to‘xtamadi. “Tujjor”, “Osiyo”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Tirik so‘z” kabi gazetalar yonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali paydo bo‘ldi. 1913–1915-yillarda uning oltmish sakkiz soni bosildi. Ziyo Said jurnalning maqsadi islom millatining saodati va islohi, musulmonlarning madaniyati va zamonaviy fanlardan foydalanishlari yo‘lida xizmat qilishini yozar ekan, Behbudiyning “tavahhudi lisoniya” (turkiy tillarni birlashtirish) tarafdori ekaniga urg‘u beradi. Bu g‘oyaning ildizi ham “Tarjimon”ga borib taqaladi, albatta.

“Oyina” jurnali o‘z vaqtida juda yuksak bir obro‘ga ega bo‘ldi, har bir o‘quvchining suyukli jaridasiga aylandi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu jurnali xuddi “Tarjimon”dek ulkan va olamshumul bir missiyani ado qildi: ma’rifat tarqatdi, odamlarni fikr tarbiyasiga o‘rgatdi; yangi paydo bo‘lgan matbuot nashrlarini targ‘ib-tashviq qildi. “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarini “Turonning egizak farzandlari” deb atar ekan, gazetxonlarga shu nashrlarni o‘qish va ularga obuna bo‘lishni tavsiya etadi: “Millatg‘a iona va olib o‘qumoqlarini ojizona tavsiya etarmiz, chunki matbuot chirog‘ va niholdek bo‘lub, anga yog‘ va suv berib tarbiyat qilmaguncha, ma’zolloh, so‘nub qurumog‘i tabiiydur”.

O‘zbekiston matbuoti tarixida jadid ziyolilari nashr qilgan gazeta va jurnallar son-sanog‘i yo‘q. Bir marta chiqib to‘xtaganlari bor. Ularning ba’zilari o‘z yo‘l-yo‘rig‘iga ko‘ra jiddiy farqlanadi ham. Garchand o‘zaro qarama-qarshi kayfiyatda bahslashadiganlari bo‘lsa ham, ular oldiga qo‘ygan maqsadlari nihoyatda ulug‘, niyatlari ezgu, qarashlar aniq va tiniq edi. Millatni uyg‘otishdek ulkan vazifa ijrosiga bel bog‘lagan edi jadidlar va ularning maktabi, maorifi, teatri, adabiyoti va matbuoti.

Muhim bir fikr shuki, davriy nashrlar qaysidir ma’noda ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tarixi bilan uyg‘un-hamqadam edi. O‘zgarishlar, yangilanishlar gazeta va jurnallarda aks etdi. Yoki shu o‘zgarishlarga mos yangidan yangi matbuot nashrlari vujudga keldi. Shunga ko‘ra 1917-yilgi fevral o‘zgarishi, Turkiston Muxtoriyati, oktyabr inqilobi kabi voqea-hodisalar munosabati bilan “Najot”, “Turon”, “Kengash”, “Ulug‘ Turkiston”, “Yurt”, “Hurriyat” kabi nashrlar paydo bo‘ldi. “Yashasin, Turkiston muxtoriyati!” shiorlarini o‘rtaga tashlab, ozodlik va hurriyatdan, tenglik va adolatdan so‘z ochdi. Muhit girdobi va ziddiyalari bois ularning ayrimlari tezda botqoqzor va uyumuqlar bag‘riga cho‘kib ketdi...

Darhaqiqat, matbuot insonlarni ma’naviyat ufqlari sari parvozga chorlagan jadidlik harakatining keng qulochli qanoti edi.

Inqilob, hokimiyat tepasiga kelgan ishchi va dehqonlar boshqaruvi jamiyatni tubdan o‘zgartirdi. Yoshlar nisbatan bu vaziyatga tez moslashdi. Ammo yurt hurriyatini o‘ylagan va orzulari sarobga aylanganidan mahzun tortgan jadid ziyolilari ong-u shuurida, xayollarida o‘z niyatlari yashab qoldi. Garchand sho‘ro jamiyatining hukmronligi kun-kundan ortib borayotgan va bu yangi ijtimoiy tuzum millatlararo tenglik, insonlararo adolat kabi juda ko‘p ijtimoiy va’dalar bersa ham, amaldagi vaziyat ancha boshqacha – gapdangina iborat edi. Shu bois XX asrning 20-yillari matbuotida “Og‘izda emas, amalda bo‘lsin!” kabi maqolalar bosildi. Uning muallifi: “Eski idora yerlik xalqni yot ko‘rish barobarida sag‘ir hisoblab, vasiylik qilishni o‘z ustiga olgan edi. Ajal sayyodi u bechoraga o‘z jomidan ajal sharbatini ichirdi.

O‘zgarishdan keyin yana bizni “tarbiya” qilish uchun vasiy bo‘lguvchilar topildi. Lekin so‘nggi vaqtda giriftor bo‘lg‘on vasiylarimiz ham, o‘tgan marhum vasiylarimiz kabi bizga vasiyi mutloq bo‘lib, muqaddiratimizni o‘z qo‘llarida tutib kelmoqdalar. Rusiya o‘zgarishi bo‘lg‘on 1917-yil edi, hozir o‘zgarishning 1922-yilida turibmiz. Shu muddatda biz “sag‘ir”lar haqiga “vasiylarimiz” tomonidan ozmi taarruzlar bo‘ldi?

Sag‘ir bolalarning ishi yig‘idir; biz yig‘ladik. A, bizni ovutish yo‘lini bergan vasiylarimiz, bizni haqimiz bo‘lg‘on semiz sigirlarning sutidan bahrasiz qildi, quruq emizukni og‘zimizga soldilar. Ilgarigi vasiylarimiz biz sag‘irlarni “siz yot, begona bolalarsiz” deb emizuk berganda, o‘zgarishdan keyingi vasiylarimiz bizning peshonamizni silab “bechora, benavo yetimlarim, sizdan baynalmilalchi vasiy otangiz aylansin” deb ko‘nglimizni sindirmasdan ovutib keladilar” (Oziyoliq. Og‘izda emas, amalda bo‘lsin. “Qizil bayroq”, 1922, 11-avgust), deb qo‘rqmay ochiqcha yozdi.

Bu davr matbuoti keyinroq keladigan hibslar, so‘z erkinligi bo‘g‘ilgan muhitdan nisbatan farq qiladi. Jadid ziyolilari yangi hukumatning va’dalariga goh ishondi va ba’zan shubhaga borishdi. Ichki bir milliy tuyg‘u ziyolilar ko‘nglini hamisha bezovta etdi. Erkparvar shoir Cho‘lpon bir she’rida zulm chekayotgan o‘lkaga qarata: “Nega tag‘in tanlaringda qamchilarning kulishi?” deya so‘roqli xitob qiladi. Shoir “Qo‘zg‘alish” (1922-y.) she’rida yana shunday dedi:

“Ey! Sen meni haqir ko‘rgan,
tuban degan afandi!
Ey! Ustimda bir umrga
xo‘ja bo‘lmoq istagan,
Ey! Bo‘ynimga kishan solib,
halokatga sudragan,
Ko‘zlaringni zaharlatib
o‘ynatmagil, bas endi!”.

XX asrning 20-yillari oxiriga borib matbuotda cho‘lponizm bahslari boshlandi, Cho‘lponni tanqid va tahqir qilishlar, anjumanlar majlislaridan haydab chiqarish jarayonlari boshlandi. Cho‘lpon darhol tuzalib, yangi jamiyatga moslashib keta olmasligini, bu jarayon sekin-asta bo‘lishini e’tirof etdi. Shoir haqida “Qizil O‘zbekiston”-da “Aqlli jinni” degan maqola bosildi. Aynan erkin matbuotda nisbatan erkinlab va erkalab yozgan “Yig‘indi gaplar” hangomasi uchun Julqunboy ma’nan majruh qilindi: 1926-yili uch oy qamoqda o‘tirdi.

1922-yili jadidlar “Haqiqat” degan jurnal ham chiqarishdi. “Dinsiz jamiyat, jamiyatsiz din yo‘qdir...” – ularning shiori edi. Cho‘lponning “Kishan” she’ri shu jurnalda bosiladi. “Haqiqat” ham ikkita sondan keyin sindiriladi.

Alohida ta’kidlash kerakki, o‘sha yillari o‘zbek matbuoti bilan birga o‘zbek adabiy tili ham qayta shakllanish bosqichini boshidan kechirdi. Adabiy tildagi turli islohotlar, ular bilan bog‘liq muammo va takliflarni jadidlar matbuoti yoritib bordi. “Chig‘atoy gurungi” o‘z qarashlarini Fitrat boshchiligida nashr bo‘lgan “Tong” jurnalida e’lon qildi. “Miya o‘zgarmaguncha boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas” degan gap ularning shiori edi. Zamonaviy adabiy til uchun qoidalar ishlab chiqildi; o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlari, badiiy til fasohati va balog‘ati jadidlar yozgan badiiy asarlarda yaqqol ko‘rindi. Shu e’tibordan jadid adabiyotidagi poetik nutqning yangilanishi va unga xos ilmiy-nazariy tamoyillar alohida tadqiqot qamrovida o‘rganish uchun o‘z egalarini kutib turibdi. Nafaqat jadid adiblari asarlarining tili, balki nodir fondlardagi jadidlar chiqargan gazeta va jurnallar, ulardagi adabiy, publitsistik, ilmiy manbalarning joriy imloga tabdillari, zamonaviy nuqtai nazardan qayta baholash va qayta nashri ham yosh ilmiy kuchlarning odil, xolis, jiddiy va mehr-muhabbatli talqinlariga juda-juda muhtoj, menimcha.

Shuningdek, asr boshida boshlangan ma’rifatparvar ziyolilarning jadidona kayfiyati, matbuotda chiqishlaridagi jadidona ruhiyati mustabid sovet tuzumi davrida ham ming mashaqqat bilan, “ezopona til”ga ko‘chgan ravishda qaysidir ma’noda davom etganini ham ta’kidlashni istar edim...

Aslida jadidlar orzusida bo‘lgan so‘z erkinligi, har bir narsani o‘z nomi bilan atash uchun Istiqlol yillari imkon berdi. Samarqandda bitta gazeta XX asrning 20-yillarida “Mehnatkashlar tovushi”, “Mehnatkashlar o‘qi”, “Kambag‘allar tovushi”, keyin “Zarafshon” deb nomlandi. Sobiq tuzum davrida bu nomlar o‘chirildi. Ammo hozir Samarqand viloyatining bosh gazetasi “Zarafshon” deb ataladi. O‘sha yaqin moziyda poytaxtda bosilgan bitta gazeta “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, keyin “Turkiston” deb nomlandi. Keyinchalik u “Qizil O‘zbekiston”, “Sovet O‘zbekistoni” bo‘ldi. Istiqlol yillarida gazetalarning biri uchun “O‘zbekiston ovozi” nomi qayta tiklanganini ko‘pchilik yaxshi biladi. Jadidlar orzu qilgan zamonlarning gazetalar nomidagi eng sodda ifodasi bu.

Tarixdan ibrat olish har bir inson uchun juda muhim. Jumladan, o‘zbek matbuotining jadidlari faoliyati bilan bog‘liq ancha qiziqarli, murakkab va ibratlarga to‘la tarixi bor. Gazeta chiqarish, fikrni hukmron “nozirlar” chig‘irig‘idan o‘tkazish, obuna, chiqqan gazeta va jurnallarni tarqatish yo‘l-yo‘riqlarini tasavvur qilish lozim. Umri “qo‘lmiya”larga tikilib o‘tayotgan hozirgi yosh avlodga bu tarixni o‘rgatish ham kerak. Shundagina bugungi ijtimoiy tarmoq egalari, turli xabarlarni beto‘xtov yozib tarqatayotgan mualliflar o‘z vijdonini oyinaga solib ko‘radi. O‘zlari yog‘dirayotgan so‘z bo‘ronlarining talafoti yoki saodatini mulohaza qilib ko‘radi, albatta.

Darvoqe, o‘zbek matbuoti tarixini batafsil o‘rganadigan gazetashunoslar 1906-yilda bosilgan “Taraqqiy”dan boshlab, to 2024-yil 1-yanvarida ilk soni chiqqan “Jadid” gazetasigacha bo‘lgan davrni qamrab olishlari lozim bo‘ladi. Zero, bu ulkan davrdagi o‘zgarish va yangilanishlar, ma’lumot va bahs-munozaralar, quvonch va armonlar – barcha-barchasi milliy matbuotimiz ruhini o‘zida aks ettirishi tabiiy.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor

TABDIL

BIR OG‘IZ SO‘Z

XX asr boshlari vaqtli matbuoti rang-barangligi bilan qiziqarlidir. Ulardan ayrimlari juda qisqa umr ko‘rdi. Deylik, 1922-yilda jadidlar tomonidan “Haqiqat” degan jurnal chop etiladi.

“Jadid” gazetasining muhtaram o‘quvchilariga A.Xatibzoda ismli muallifning “Haqiqat” jurnalida bosilgan kichik bir maqolasini taqdim etamiz. Maqola o‘tgan ulug‘ allomalarimizni eslash bilan birga jadidona kayfiyat, jamiyatni o‘nglash, haqiqat yo‘lidan adashmaslik, haq so‘zni unutmaslikka doir muhim fikrlar bayon etilgani bilan qadrlidir.

Nashrga tayyorlovchi

Turkistonda islom dini va madaniyati

Hayoti bashariyaning saodati uchun buyuk Tangri tomonidan yuborilg‘on eng sodiq, eng toza din islom dini bundan bir ming uch yuz necha yillar ilgari Arabiston mamlakatidan joriy bo‘lib, qum va sahrolarda yurgan badaviy vahshiy xalqlarni madaniy bir holga keltirib, insonlar orasidagi insonlik vazifasini tushuntirib, amaliy ravishda ishlanib, butun dashti biyobondan iborat bo‘lgan yerlarni ma’mur qilib, islom madaniyati degan bir narsani jahon maydoniga otgandir.

Hozirgi asrimizda butun olamga o‘zini tanitgan Yevro‘po madaniyati shul islom dini soyasida vujudga kelgan arab madaniyatidan (“vahshiy onasining qornida haml topib”) dunyoga kelgan.

Islom dini birgina firqa uchun kelgan emas; balki butun dunyo insonlari uchun kelib, alarning ikki dunyo saodatlari uchun umumiy rahbar bo‘lg‘ondir.

Bundan bir necha yuz yillar ilgari Turkistonga kelib, badaviy bir holda yashag‘on xalqlarni madaniy bir holga keltirib, ulug‘-buyuk alloma Taftazoniy, Buxoriy, Forobiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Ahror Valiy, Navoiy va shular kabi qancha dohiy, olim-ulamolar, zo‘r hakimlarni yetishtirgan, insonlarning aqlini shoshirib, hayratda qoldiraturg‘on tog‘ kabi binolar-ravoqlar, katta-katta masjid, madrasalarni yasatgan, necha minglab talabalarni o‘qitgan islom dini, islom madaniyati hozirgi asrimiz, hozirgi holimizda mazlum, ma’zun, e’tibordan soqit bo‘lib, oh va nadomat ko‘rpasiga o‘ralib, o‘lim to‘shagida yotmoqda. Sababi esa: so‘nggi choqlardagi ilmsizlik, ma’rifatsiz xonlar elning charog‘i-yo‘lboshchisi bo‘lg‘on ulamolarni o‘z bo‘yinturug‘lari ostiga olib, sof yo‘lni o‘z shaytanat yo‘llariga tatbiq etdirdilar. Bechora ulamolar tor ko‘zlari, kichik miqyosda topgan tarbiyalari soyasida johil, xoin xonlarning bo‘yinturug‘i ostiga kirib, aytganicha ishlamakka majbur bo‘ldilar.

Buning ustiga kengroq tarbiya topgan, kengroq romkada ko‘zini ochgan mustabid hukumat bizning el boshliqlarimizning soddaliklaridan istifoda qilib, butkul siyosat ro‘lini bizning ma’naviy hayotimiz, diniy va madaniy maorif taraqqiyotimiz qarshisinda o‘ynadilar. Ezilgan ustiga ezildik, yanchilgan ustiga yanchildik.

Kela-kela maqsad, maslak degan narsadan ayrildik. Butun umuri diniyalarimiz makr-hiylaga aylandi. Maqsad, muazzam dini muborakimizning haqiqatini yo‘qotib, hayoti bashariyamizni tamom barbod etdik.

Inson shaklida bo‘lib o‘z yurtimiz, o‘z eshigimizda hayvonlar turmushi, hayvonlar yumushini o‘tamakdamiz. Bu holimizga “voy” deguvchi kishining og‘ziga pattayi kapish olib yuguramiz.

Ilm, ma’rifat degan so‘zni eshitsak o‘n chaqirim uzoq qochamiz. Tangri taoloning “hal yastaviy allasina ya’lamunav vallazina la ya’laumna” (“biladigan zotlar va bilmaydigan zotlar barobar bo‘ladimi?”) degan oyati karimasi va Payg‘ambarimizning “utlubil ilma va lav bis sina” (“Chinda bo‘lsa ham ilm talab qilinglar”) degan so‘zini unutdik, amal qilmadik.

Tangri taoloning “Va laqad karramna bani adama va hamalnahum filbarri valbahri va razqnahum minattoyyibati” (“Darhaqiqat, biz Odam farzandlarini mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizda (ko‘tardik) va xushbo‘y narsalardan rizqlantirdik”) degan so‘ziga va “Va anna laysa lilinsani illa ma sa’a” (“Va albatta, inson uchun qilgan harakatidan boshqa narsa (nasiba) yo‘q”) degan so‘zlariga muvofiq o‘z sa’y-harakatimiz ila insonlik sharafida kun kechirmadik. Haqiqat yo‘lini unutdik, adashdik. Bundan besh-olti asr ilgaridagi – masjid, madrasa, dorilfununlarimizni hozirda og‘ilxona holiga aylantirdik. Yetar endi shu qadar razolatimiz!

Xulosa: qachon biz ham zamoni saodat kabi bo‘lg‘on shul zamondan foydalanib, g‘aflat to‘shagidan turib, jaholat zanjiridan qutilib, din va maslagimizni qattig‘ ushlab, umumiy bir fikrda xatti-harakat etsak, shoyad buning soyasida Turkistonda o‘lum to‘shagida yotgan islom dini, islom madaniyati sog‘lom bo‘lib, huquqi insoniyatimizdan muhrum bo‘lg‘on biz Turkiston yerli xalq musulmonlari madaniyati azaliyamizni qayta topib, madaniyat va taraqqiyi abadiyaga erisharmiz.

A.XATIBZODA

“Haqiqat” jurnalining 1922-yilgi 1-sonidan
B.NURMUHAMMAD nashrga tayyorladi.

BEDOR O‘Y

“QIZ CHIQARGANGA QIRQ YIL TEGMA”

yoxud topgani to‘yga buyurgan odamlar...

Andijonda “yuz ochdi” degan marosim bor. To‘yning ertasi kuni yangi kelinning uyidagilari bir guruh qarindoshlari bilan kuyovning xonadoniga kelib mehmon bo‘lishadi. “Bor tovog‘im-kel tovog‘im” qilishadi.

O‘rta va katta avlod vakillari yaxshi eslasa kerak, bu marosimda kelinchakning yuziga ro‘mol to‘sib, yangi oila a’zolari oldiga olib chiqishadi. Qaynotasi qo‘liga guruch, un, yog‘ soladi. Kelinchak hovuchidagi masalliqlarni supraga to‘kadi. Keyin... Oilaning eng kichik a’zosi qo‘lida o‘qlov bilan ro‘molni ilib olib tashlaydi va shu bilan kelinchakning “yuzi ochiladi”. Marosim shuning uchun ham “yuz ochdi” deb nomlangan. Mehmondorchilik yakunida xatmi Qur’on qilinadi.

Kuyov tomon uchun o‘g‘il uylashdagi eng muhim marosimlardan biri bu – “yuz ochdi”. Chunki, “yuz ochdi”da kelinning onasi, ya’ni quda ham ilk bor qarindosh sifatida keladi. “Yuz ochdi”ga alohida bozorlik qilinadi. Maza-maza, mehmonlarga maza. Shuning uchun anjancha “yuz ochdi”ga aytilsa xotinlar jon-jon deb borishadi. Quruq qaytmasligini bilishadi-da.

“Yuz ochdi”ga quruq borib bo‘lmaydi, deyilgan joyi bor. Qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, kimdir manti, kimdir somsa olib keladi. Qo‘shnilar, hech bo‘lmaganda, qatlama pishirib chiqishadi. Qiz tomondan kelganlar yo osh qilib keladi (asosan devzira guruchda), yo oshning masallig‘ini solib keladi. Biz tarafda buni “xom osh” deyishadi. Kuyov tomon avval suyuq taom tortadi. Bizning mahallada yo lag‘mon, yo mampar qilinadigan bo‘pqolgan. Agar quda taraf osh qilib kelgan bo‘lsa, mehmonlarga marosim oxirida o‘sha osh tarqatiladi, masalliq olib kelgan bo‘lsa, o‘sha masalliqdan palov qilinadi.

Suyuq ovqat va osh orasida tortiladigan ovqatlarni sanayman: turli salatlar (kamida ikki xil), somsalar (go‘shtli somsa ro‘yxatda, albatta, bo‘ladi, qudalarning yuzi – bu), manti, tabaka yoki qozonkabob, shirguruch. Qisqasi, kim nima ovqat olib kelgan bo‘lsa, o‘shandan qudalarga kiritiladi. “Yuz ochdi”ning guli – kabob. Ayniqsa, to‘yxonada o‘tkazilayotgan bo‘lsa, albatta, tortilishi kerak. Issiq ovqatlardan tashqari dasturxondagi noz-ne’matlarni aytmaysizmi? Patir-somsa, gijda non, qatlama, qaymoq va holvaytar. Bir-ikki xil salat. Bahor faslida bo‘lsa qulupnay, gilos, o‘rik, yozda esa qovun-tarvuz, shaftoli, olma, mandarin, banan, kuzroqda bo‘lsa uzum, anor, behi, anjir, nok va hokazo.

Endi chaq-chuqlarga navbat. Pista, bodom, yeryong‘oq, funduk deydimi, shunaqa. Arabcha xurmo, yong‘oq, mayiz va sho‘rdanak.

Konfetlarni umumiy nom bilan shirinliklar deb atay qolaylik. Bularga qog‘ozli qandlar va pirojniy-morojniylar kiradi.

Ichimliklar: fanta, kola, pepsi, kompot yoki meva sharbatlari, oddiy suv, “Borjomi”, “Chortoq”...

Yana nima qoldi yozmaganim? Iya, go‘shtli assortini yozmabmanku! Kesim-kesim qazi, o‘rama go‘sht, kurka go‘shti, dudlangan va qaynatma kolbasa, pishloq va brinza. O‘rtada pomidor-bodring, ko‘kat bilan bezatilgan anvoyi to‘plam.

Mehmondorchilikning avji, qaynoq nuqtasida “oldi-berdi” boshlanadi. Badiiy asarlarda “kulminatsion nuqta” deyishadi-ku!

“Yuz ochdi” marosimi kuni kelin tomon rosa “shilinadi”. Ya’ni qudalarga narsa tashlash bo‘ladi. Qaynonasiga ko‘rpa, qaynotasiga ko‘rpa. Quda bo‘lmish umra yoki hajga borib kelgan bo‘lsa, bitta chiroyli kamzul yoki jemper (ko‘proq oqidan, hojilar oq kiyim kiyadi-ku), kuyov bolani bobo-buvisi bo‘lsa, ularga ko‘rpa yoki odeyal, uyda qaynsingil bo‘lsa, ungayam biror kiyimlik tashlanadi. Amma-xola, uydagi kichkintoylar ham quruq qolmaydi. Kuyov bolaga-ku, narsalarning eng yaxshisi. Himmatli quda bo‘lsa yana bosh-oyoq sarpo qiladi, bo‘lmasa, hech yo‘q turkcha sport kiyimi. Kuyov tomon ham kelinning ota-onasi, opa-ukasiga ataganini ilinadi. Amma-xolalarga esa o‘zlari olib kelgandan biron ko‘ylaklik mato qaytariladi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Samarqanddagi to‘yda mehmonlarga tilla buyumlar tarqatilgani aks etgan video tarqalgandi. Bizda hartugul tilla tarqatishmaydi. Har bir mehmonga bittadan idish-tovoq yoki sochiq ulashiladi.

“Yuz ochdi”dan keyin dasturxonda deyarli hech vaqo qolmasligi kerak. Irimi shu. Ayollar bo‘kib yeb-ichgani yetmagandek, hamma narsadan tugunga tugib olib ketishadi. “Peshdasturxon” deb qo‘yishadi buni. Marosimdagi hamma qiz-juvonlarga dasturxon tugib beriladi. Shuning uchun “yuz ochdi”ga dasturxon tuzaganda noz-ne’matlardan biroz kemtib, bir joyga olib qo‘yish kerak. Hali oldinda “kelin ko‘rar” bor. To‘p-to‘p bo‘lib mahalladan xotin-xalaj kelinchak ko‘rgani kirishadi, “pistasidan chaqib chiqamiz” deb.

– Endi senam katta xotin bo‘p-qolyapsan, shunaqa marosimlarga aralashib tur, ertagayla o‘g‘il uylaysan, o‘rganib ol! – deb qoldi kichik opam.

Uning gapi bilan katta opam o‘g‘lini uylaganda “yuz ochdi”da o‘tirdim. Avval aytganimdek, suyuq ovqat keldi. Sho‘rva, orqasidan ikki xil somsa, keyin qo‘sh manti. Bir payt taqsimchaning chetida bir kapgirgina moshkichiri, bir juftdan kartoshka, tovuq oyog‘i keltirishdi.

– Menga qo‘ymang, yemayman! – deb qaytarmoqchi bo‘ldim.

– Olib qolavering, yeyolmasangiz uyga obketasiz! – dedi qarindoshim.



– Voy, opa, sumkamga qanday solib ketaman? Daftarlarim yog‘ bo‘ladi-yu, – dedim.

– O‘zlari idish berishadi hozir, qarab turing!

Rost ekan. Marosim oxirida, ya’ni otinoyilar duo qilib bo‘lganlaridan so‘ng bir kelin kirib, hammaga bir marta ishlatiladigan yelim idish tarqatdi. Mehmonlar yeb-ichganidan ortganini idishga zichlab, joylay boshlashdi. Ovqatlar solinib, idish og‘zi yopildi. Keyin dasturxonchi kirib dasturxon o‘rtasidagi sindirilmagan nonlarning hammasini bir-bir oldi. Katta-katta chorsilar olib kirgan ekan. U chorsilar ham bobomning shoyi belbog‘iday ka-a-a-atta. Peshdasturxon tugildi. Bu otinoyilarga ekan. Hozir kattaligi savatday keladigan patirlar chiqqan ko‘rgan bo‘lsanglar. Kuyov patir deyishadimi-yey. Mazasini bilmadim-u, ko‘rkiga gap yo‘q. Bu patir sindirilmasdan shundoq mehmonlarning tuguniga kirib ketdi. Ustiga yog‘li patir, saryog‘li va do‘ltali non ustma-ust qo‘yildi. Uning ustiga qatlama, keyin somsa va ezilib ketmaydigan pishiriqlardan taxlandi. Yana qand-qurs, chaq-chuqlar, uning ustiga olma-banan-mandarin kabi mevalar. Uzum ezilib ketadi, deb solishmadi, bir gujumdan bo‘lvolib yeb qo‘yaqolishdi. Keyin dasturxonchi chorsilarni tugdi. Uchlari bog‘lashga zo‘rg‘a yetdi o‘ziyam. Chorsi jonivor tirsillab turibdi. Darvoqe, noz-ne’matlarni ustida latta-puttasiyam bor. Mehmonning obro‘si, mavqeiga qarab toza mato yo mundayrog‘i solinadi. Hozir mato o‘rniga otinoyilarga yaxshi parko‘rpa yo yopinchiq berilyapti. Xuddi to‘y-ma’rakada qori akalarga berilayotgani kabi. Undan tashqari, otinoyilarning tuguniga pul ham solib qo‘yiladi. Miqdorini bilmayman. Xullas, otinoyilarning ko‘ngli olindi hisob. Endi kelgan mehmonlarga navbat: hammaga durra tarqatildi, har kim o‘z oldida turgan yemoq-ichmoqni o‘zaro bo‘lishib, tugvoldi.

Bunaqa marosim qayda bor yana? Mehmonlar yeb-ichganidan tashqari, dasturxonni ship-shiydam qilib ketsa. Hamma ayollar tugunini tugib bo‘lgach, razm solsam, dasturxonda sindirilgan to‘g‘ramcha nonlar va piyolada yarimlagan qaymoq, chala yeyilgan tarvuz-qovundan boshqa hech narsa qolmabdi.

“Shu qaymoqqa ham yelim idish tarqatishsa bo‘lar ekan”, deb hazillashdim. Hazil tagidagi kesatiqni birov tushunganiyam yo‘q. Mehmonlar tarqashdi. Idishlarni yuvishga qarashayotsam, jiyanim bechora yana ovqatga piyoz to‘g‘rashtiryapti.

– Iye, ha? Shuncha yeb to‘ymadilaringmi? Yo kuyov oshi uyda bo‘larkanmi?

– Xola, ovqat mehmonlardan oshmadi-yu. Biz yeganimiz yo‘q. Ichkariga olib kirib ketyapti-olib kirib ketyapti... Lagan-tovoq qaytdi-yu, ovqat qaytmadi. Kabobniyam bitta qoldirmay ichkariga uzatvordik. Xotinlardan hech narsa qaytib chiqmaydi-da o‘zi...

Kulgili va uyatli. Mabodo, davramizga birorta chet ellik mehmon aralashib qolsa nima bo‘ladi? Xudo ko‘rsatmasin!

Shu narsa yaxshimas, deb dasturxonchiga gapirsam, yoqmadi. “Ehson – bu!” deydi. Bir tomondan uyam o‘zicha haq. Ammo har ishda me’yor bo‘lishi kerak. Uy egasi dasturxon yozdi, yeb-ichdingiz, sovg‘a ham berdi, kamiga talab-tunab chiqib ketish shartmi?

Ana shunaqa “mehmondo‘stlik” bilan to‘y qilamiz biz. Munday-rog‘iga ko‘nglimiz bo‘lmaydi. Ayniqsa, shaharda, shaharga yaqin hududlarda orzu-havasni mol-dunyo bilan o‘lchaydiganlar ko‘p. Andijonda qiz chiqarish juda qiyin va qimmat.

To‘y va marosimlarni kamchiqim qilib o‘tkazish haqidagi gap-so‘zlar, muhokamalar bir ko‘tarildi-yu, keyin bosilib ketdi. Hozir birovning ishi yo‘q. To‘g‘rida, mahalla idorasining boshqa qiladigan ishi yo‘qmi? Ayniqsa, uch-to‘rttadan qizi borlarga xudoyim sabr bersin! Qishloqlarda har uch oiladan birining erkagi xorijda ishlaydi. Hazil-hazil-ku, ammo ota-bobolarimizning “topganlaring to‘ylarga buyursin” deb qilgan duolari ijobat bo‘lganmi, deyman-da. Misqollab yig‘ib-terib, orzu-havas yo‘lida botmonlab sovuryapmiz.

Men to‘yshunos emasman, qaysi shaharda qanday urf-odatlar bor, qaysi hududda to‘y qay tarzda o‘tadi, bilmayman. Yozganlarim butun O‘zbekistondagi holatni anglatmaydi. Men o‘zim yashaydigan shahar holatini tasvirlab yozdim. Oriyatingiz kelib, “bekor gap, oshirib yuboribsiz” desangiz, Andijonga keling, to‘ylar ko‘p, oboraman. O‘zingiz guvohi bo‘lasiz. Hali men marosimdagi qo‘lga suv quyib yoki qudalarga isiriq solib pul yig‘ishlarni yozmadim. Sanasam, sakkiz demay, o‘z yashayotgan hududingizda ommalashtirib yubormang deyman-da...

Muazzam SOBIRJON qizi

Husan SODIQOV chizgan rasm.


BIZNI KEMIRGUVCHI ILLATLAR

Dabdaba va dahmaza

Yaqinda instagram tarmog‘ida taniqli blogerning tug‘ilgan kuni nihoyatda dabdabali tarzda nishonlangani haqidagi videolavha tarqaldi. Uning hashamatli xonadoni atrofiga cho‘g‘dek qizil gilamlar to‘shalib, rango-rang chiroqlar bilan bezatilgan. Ajabtovur sahna ham barpo qilingan bo‘lib, mashhur san’atkor u yerda qutlov qo‘shiqlarini xonish qilib turibdi. Yuzdan ortiq odam yig‘ilgan, rang-barang pufaklar, mushakbozlik, kattagina tort va yana allambalo narsalar. Raqs, o‘yin-kulgi avjida...

So‘nggi paytlarda tug‘ilgan kunlarni shu tarzda beo‘xshov nishonlash va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘z-ko‘z qilish “urf”ga aylandi. Bunday xatti-harakatlar hech qanday mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. O‘zini, boyligini o‘zgalarga namoyish qilishmi, maqtanishmi – tushunish qiyin. Eng yomoni, bunday “tadbir”lar tobora semirib-kengayib bormoqda. Tarmoqlardagi videolavhalarda (odatda ayollarni shunday tabriklashadi) yarim kechasi – soat o‘n ikkidan o‘tgach, tantana sababchisini qutlash uchun uning o‘n besh-yigirma chog‘li do‘stlari va yaqinlari yig‘ilganini ko‘rish mumkin. Har birining qo‘lida qimmatbaho sovg‘alar, gullar, tort, yumshoq o‘yinchoqlar, rangdor pufaklar. Baland ovozda musiqa yangrab turadi. Ko‘pincha bu vazifani ado etish uchun san’atkorlar taklif qilinadi.

Tungi kiyimda chiqib kelayotgan tug‘ilmish banda go‘yoki hech narsadan bexabar odamdek hayratdan lol bo‘lib qoladi. “Chaqirilmagan mehmonlar” esa uni qutlash bilan birga, o‘yin-kulgi qilib, baland ovozda gaplashib, xoxolab kulishadi. Osmonga otilayotgan mushaklarning shovqinini aytmaysizmi… Bunday beo‘xshov manzaralarni kuzata turib, madaniyat haqida jo‘shib gapiradigan ba’zi blogerlar yodimga tushadi. Axir, ular emasmi bu kabi “sermazmun marosimlar”ni odamlar orasida targ‘ib qilayotgan!



Yarim tunda o‘zgalarning tinchini buzish qaysi madaniyatli insonning ishi? Internet tarmoqlarining asosiy kuzatuvchisi bo‘lgan yoshlar esa vaqt o‘tgan sayin bunday qiliqlarni ortiqcha dabdaba-yu dahmazalar bilan yanada boyitib, “haddi a’lo”siga yetkazmoqda.

Xo‘sh, bunaqa dahmazalar qanchaga tushar ekan? Karantin vaqtida o‘tkazilgan ixcham to‘ylarga qilingan xarajat ham uning oldida holva bo‘lib qolsa, ajabmas. Masalan, bir dasta gulning boshlang‘ich narxi 300-400 ming so‘mdan kam emas. Xorijiy chechaklardan yasatilgan guldastalar esa 2 million so‘mgacha baholanadi. Maxsus buyurtma qilinadigan tortlarning narxi ularning katta-kichikligiga qarab 200-300 ming so‘mdan to 1 million so‘mgacha boradi. Dekoratsiyaning eng arzoni 300-400 ming so‘m bo‘lsa, havo to‘ldirilgan rangdor pufaklarning donasini 10-12 ming so‘mdan hisoblayvering. San’atkorlarning “birrovlik xizmati” ularning mavqeyiga qarab 500-5000 dollargacha baholanadi. Yana biz bilmagan qanchadan-qancha xarajat va ovoragarchiliklar...

Shuncha mablag‘ bir insonning tug‘ilgan kunini nishonlash uchun sarf qilinishini aql bilan tushunish qiyin. Avvallari bunday marosimlar oila davrasida, ixchamgina ziyofat orqali nishonlanar edi. Bugunga kelib tug‘ilgan kunning uncha-muncha to‘ydan farqi qolmayapti. Nima bu? To‘qlikka sho‘xlikmi? Ma’naviy jihatdan tubanlashish oqibatimi?

Dabdabali to‘y-hashamlar uyushtirish orqali soxta obro‘ qozonishga urinayotgan shuhratparast va takabbur kimsalar havoga sovurayotgan mablag‘ining o‘ndan birini xayrli maqsadlar yo‘lida – beva-bechoralarga yordam berish, mahalla va qishloqlarni obodonlashtirish, yangi ish joylari tashkil etish, yoshlarni ilmli qilishdek ezgu ishlarga sarflaganida el-yurt orasida chinakam hurmat va e’tibor topgan bo‘lar edi.

Biz orzu-havasli xalq emasmizmi, dabdaba-yu as’asani yaxshi ko‘ramiz. Odamlar orasida serchiqim to‘ylar o‘tkazish orqali boyligi-yu saxovatini ko‘z-ko‘z qilish odat tusiga kirgan. Diniy ulamolarimiz bu kabi ortiqcha xarajatlarni, uvolni kamaytirish haqida ko‘p va xo‘p gapirishdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda Senati Kengashining 2019-yilda qabul qilingan “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarorida bu borada bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan edi. Shuningdek, respublikamizdagi barcha shahar va tumanlar hokimliklarining qarorlari bilan joylarda to‘y va ma’rakalarni o‘tkazish bo‘yicha muayyan tartib-qoidalar joriy etilgan. Biroq ko‘pchilik odamlar ularga rioya qilishni xayoliga ham keltirmayapti.

O‘z davrida jadid bobolarimiz ham to‘y va marosimlarda ortiqcha dabdabaga berilishni millat ravnaqiga to‘sqinlik qilib, uni zalolatga yetaklayotgan muammolardan biri sifatida baholab, ularga chek qo‘yishga intilganlar. Ulug‘ ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Bizni kemiruvchi illatlar” nomli maqolasi ham aynan shu masalada. Behbudiy hazratlarining ta’biri bilan aytganda, to‘y va aza marosimlari “bizni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg‘acha istilo etib, butun tirikligimizg‘a sorilgon va bizni inqirozg‘a va tahlikag‘a va jahannamg‘a yumalataturgon ikki qattol dushman”.

Ming afsus, oradan bir asr vaqt o‘tgan bo‘lsada, bu muammo barham topmadi, aksincha yangi-yangi bid’at va xurofotlar bilan boyib, yanada chuqurroq ildiz otdi. Bizning ortiqcha hoy-u havaslarimiz battar hakalak otsa-otdiki, zarracha kamaymadi.

Keyingi vaqtlarda ma’raka-marosimlar safiga “Umra to‘yi”, “Gender party”, “Merry me” kabi kurakda turmaydigan dabdabalar ham qo‘shildi. Barchamiz “Erdan chiqsang ham, eldan chiqma” degan naqlga amal qilib, vujudimizni qurtdek kemirayotgan bu ma’naviy xastalikni bekitishga, kimo‘zarga o‘ynalayotgan marosimlar poygasida boshqalardan ortda qolmaslik uchun harsillab chopishga harakat qilamiz.

Bu boradagi ortiqcha dabdaba va isrofgarchilik haqidagi e’tirozlar, ta’na-dashnomlarga ich-ichimizdan qo‘shilsak-da, sirtimizga suv yuqtirmaymiz. Bu haqda gapirish – osmonga kesak otishdek foydasiz, deya qo‘l siltab yashayveramiz. Hayotimiz farovon, dasturxonimiz to‘kin bo‘lib borgani sayin ma’naviy qashshoqlashib ketayotganimizni tan olmaymiz. Bizning eng katta fojiamiz ham shu bo‘lsa, ajabmas.

Isrof haqida gapirganda, bu so‘zning “chegaradan chiqish”, “bir narsani qasddan unutish” singari lug‘aviy ma’nolarini bilib qo‘yish ham foydadan xoli emas. Bu atama hayotda ko‘proq moddiy sarf-xarajatlar bobida haddan oshishni anglatadi. Taniqli diniy ulamolardan biri Rog‘ib Asfihoniy: “Har qanday ishda chegaradan chiqish isrofdir”, deya ta’kidlagan. Muqaddas kitoblarimizdan ham odamlarni isrofgarchilikdan tiyilishga undaydigan ko‘plab hukmlar borligini ko‘pchiligimiz yaxshi bilamiz. Hamma balo shundaki, bila turib ularga amal qilmaymiz!

“To‘y va ta’ziyag‘a sarf qilinaturg‘on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar”...

Jadid bobolarimizning peshvosi Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining ushbu da’vatkor nidosi bugun har bir yurtdoshimizning ongiga yetib borib, ularning hayotiy shioriga aylanishi kerak. Ishonavering, ana shunda ko‘p narsalar o‘zgaradi, har birimizning oldimizda shu choqqacha tasavvurimizga ham sig‘magan yuksak maqsad va orzular paydo bo‘ladi.

Vasila HABIBULLAYEVA

YURT QAYG‘USI

“Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti – til va adabiyotidur”, deya milliy taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan jadid bobolarimiz ko‘targan ayrim masalalar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmay kelayotir. Jumladan, milliy til islohi borasida kuyinchaklik bilan aytilgan fikrlar, amalga tatbiq etilgan o‘zgarishlar o‘zbek tilining dunyo hamjamiyatida tutgan bugungi o‘rni yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi, deyish mumkin.

Yaqinda “Jadid ma’rifatparvarlarining o‘zbek adabiy tili rivojidagi o‘rni” mavzusida tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy anjumanida jadidlar faoliyatida til masalasiga bo‘lgan munosabat haqida so‘z bordi.

Qator hamkor tashkilotlar ishtirokida o‘tkazilgan ilmiy anjumanda 50 ga yaqin tilshunos, adabiyotshunos va folklorshunos olimlar o‘zlarining jadidlar faoliyatida adabiy til, imlo va alifbo masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalari bilan ishtirok etdi. Quyida ilmiy anjuman mundarijasidan o‘rin olgan maqolalardan birini e’tiboringizga havola etmoqdamiz.

TAHRIRIYAT



Jadidlik: TIL, IMLO VA ALIFBO

Jadid ziyolilari mamlakat madaniy, siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan til, alifbo-imlo masalalari bilan ham jiddiy shug‘ullangan. Yozuv islohoti va o‘zgarishi, bularga doir o‘tkazilgan tadbirlar, anjuman va qurultoylarda faol ishtirok etishgan.

Fitrat rahbarligida ish olib borgan “Chig‘atoy gurungi” madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy tashkilot sanalgan. 1919-yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiqlangan. Tashkilot madaniy merosimizni to‘plash, o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o‘zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug‘ullangan. Jamiyat a’zolaridan Qayum Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Oltoy va Botu imlo masalalari bilan maxsus shug‘ullanuvchi “Chig‘atoy gurungi”ning “imlo to‘dasi”da ish olib borgan. Ular o‘zlari isloh etgan imloni gazeta orqali targ‘ib qilishgan. Ikki oylik o‘qituvchilar tayyorlash kursi ochib, yangi imloni o‘rgatishgan. “Chig‘atoy gurungi” a’zolarining o‘qituvchilar uchun imlo qo‘llanmasi bo‘lgan “Bitim yo‘llari” nomli bitikchasi Maorif komissarligi ruxsati bilan 1919-yilda chop etiladi. Ko‘pchilik yosh ziyolilar, o‘qituvchilar “Chig‘atoy gurungi” imlosini yoqlab, ularga ergashadi.


Maorif komissarligi qo‘llagan “Chig‘atoy gurungi” a’zolari tashabbusi bilan Toshkentda 1921-yilning boshida Til va imlo qurultoyi bo‘lib o‘tadi. Qurultoyda eski alifbo-imlo savod chiqarishga, maktab-maorif rivojiga, madaniy taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgani sababli rasmiy isloh etilib, “Chig‘atoy gurungi”ning imlo asoslari qabul qilinadi. Qurultoyda imlo masalasida ziyolilar o‘rtasida fikriy ajralish bo‘ladi. Bu borada ziddiyat yangi imlo masalasi o‘rtaga chiqqan 1919-yildan paydo bo‘lgan edi.

Gurungchilar adabiy til va yozuv masalasida asosan o‘zbek millati manfaati nuqtayi nazaridan ish ko‘rdi. To‘g‘rirog‘i, ular yangi o‘zbek milliy adabiyoti va adabiy tili, ilm-madaniyatini yaratishni maqsad qildi. Yangi adabiyot va adabiy tilni chig‘atoy adabiyotining chin vorisi bilib, uni Alisher Navoiy davridagidek burungi mavqeyiga, shon-shavkatiga qaytarishni, boshqa turkiy tillar uchun ham o‘rnak adabiyot, namuna adabiy til holiga ko‘tarishni istashdi. Faqat buni yangi tarixiy sharoitda, o‘zbek millati nomi bilan bog‘liq ravishda yuzaga chiqarmoqchi bo‘ldilar. “Chig‘atoy gurungi”ning maqsadi Fitratning birinchi Til qurultoyidagi ushbu so‘zlarida yanada yaqqol ko‘rinadi: “Chig‘atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o‘rinni tutg‘ondur. Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliqlari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turalar. Chig‘atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo‘lg‘onlig‘in qabul etmak mutlaqo lozimdir... Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori o‘rinda turg‘onidan, tilimizning-da turk tillari orasida yuqori mavqe tutg‘onini chiqarg‘on kabi bo‘ldim”.

“Chig‘atoy gurungi” a’zolari “butun turk urug‘larining tili bir turli bo‘lsin va yozishlari ham bir qoida ostida yozilsin” kabi masalalarni imkonsiz deb bilganidan yolg‘iz o‘zbeklarning “o‘ziga tegishli bo‘lgan shevasida va o‘ziga tegishli sanalgan imlosida o‘qib, yozishlari hamda shul imlo va tilni yalpi shul xalqning o‘ziga qabul etdirish” fikri bilan ish ko‘rdilar. Gurung a’zolaridan Elbek bu haqda shunday yozadi: “1921-yilgi Til-imlo qurultoyiga “Turkistonda bo‘lg‘on turk urug‘larining yolg‘iz o‘zbeklarnigina chaqirmoqchi bo‘ldiq ham bu qurultoyni “O‘zbek qurultoyi” deb atadik”.

Munavvar qori, Musa Begiyev, Ashurali Zohiriy va ularga maslakdosh millatparvarlar Turkiston ozodligi uchun kurash ketayotgan bir sharoitda milliy-madaniy jabhada yolg‘iz o‘zbek millati nomi bilan yo‘l tutilsa, kurashning dushman foydasiga hal bo‘lishi mumkinligini ta’kidlashdi. Shuning uchun ham ular O‘rta Osiyodagi turkiy xalqlar uchun umumiy bir til, yagona yozuv va adabiyot yaratishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

Aslida bu g‘oya Munavvar qori, Ashurali Zohiriy kabi millatparvarlarning maslakdoshi, Turkiston istiqlolchilik harakati g‘oyaviy rahbarlaridan biri bo‘lgan yirik olim va arbob Zaki Validiy tomonidan ilgari surilib, quvvatlanayotgan edi. Bu umumiy til asosida turkiy xalqlarning umum adabiyotini yaratish ko‘zda tutilgan. Validiyning fikricha, “milliy qiymatlar va dostonlar ham faqat qozoq va urug‘li o‘zbek, qirg‘iz, qoraqalpoq guruhlari bo‘yicha yaxshi muhofaza etilganligidan kelajakda milliy adabiyotning ham bu guruhlar atrofida vujudga kelajagi, kent turki, totor va boshqird qabilalarining ularga qo‘shiluvlari o‘z-o‘zidan anglashiladi”.



Til va yozuv masalasi bu davrda ijtimoiy-madaniy sohada muhim siyosiy ahamiyat kasb etayotgani sababli Munavvar qori va uning tarafdorlari hamda “Chig‘atoy gurungi” o‘rtasida alifbo-imlo, adabiy til sohasida jiddiy kurash kechgan.

1922-yil fevral oyida Toshkentda chaqirilgan O‘zbek madaniyati va xodimlarining o‘lka qurultoyi ham til-imlo masalasi tufayli ikki taraf guruh o‘rtasidagi bahs va janjallar bilan o‘tdi. Milliy taraqqiyot omili bo‘lgan maktab-maorif, matbuot-nashr ishlarida turlilik, parokandalik yuzaga keldi. Buning salbiy oqibatini anglagan ziyolilar o‘rtadagi nizoga barham berishga va birlashishga qaror qildilar...

1923-yilning oktyabrida Buxoroda O‘rta Osiyo o‘zbeklarining Til va imlo o‘lka anjumani chaqirildi. Unda yana alifboni isloh qilish, imlo asoslarini ishlab chiqish masalalari ko‘rildi. Konferensiya qarori Turkiston Jumhuriyati maorif komissarligining 1923-yil 18-oktyabrdagi 48-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan. Ta’kidlash kerakki, bu yig‘inda kelgusida alifboni lotinlashtirish fikri ma’qullandi. Bu ishning amaliy tomonlari muhokama qilindi. Turkiy dunyoda qo‘zg‘alayotgan lotinga o‘tish harakati, shuningdek, ziyolilar o‘rtasidagi noahillik sabab Buxoro anjumanidan so‘ng ham yozuvda boshboshdoqlik davom etdi...

Arab yozuvi ma’lum darajada musulmon dunyosi, xususan, musulmon turkiylar birligiga yordam berar edi. Alifboni o‘zgartirish ularni ajratib tashlash uchun qo‘l kelardi. Shuning uchun ham ruslar turkiy xalqlarning arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tishlarini jon deb qo‘llabquvvatladi va hatto ziyoda rag‘batlantirdi.

Arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tish g‘oyasi dastlab XIX asrning ikkinchi yarmidayoq ozarbayjonlik mutafakkir Mirza Fatali Oxundov tomonidan ilgari surilgan. 1922-yildan boshlab Ozarbayjonda lotin alifbosini joriy etishga doir tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Ko‘p o‘tmay bu tashabbus turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar o‘rtasida keng yoyildi.

1926-yilning 26-fevral – 3-mart kunlari Bokuda Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyi bo‘ldi. Tadbirda O‘zbekistondan Rahim In’omov, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Elbek, B.Rahmoniy, A.Abdujabborov vakil bo‘lib bordi. O‘zbekistondan yana Sadri Ismoil, G‘ozi Olim Yunusov, Xolid Said Xo‘jayev, Majid Usmonov ham anjumanda maxsus taklif bilan ishtirok etgan. Fitrat bu anjumanga yirik sharqshunos olim sifatida “alohida chaqiruv bilan” taklif etildi. Ammo negadir u anjumanda ishtirok etmaydi...

Lotinlashtirish haqida gap ketganda, bu jarayon mamlakat bo‘ylab qizg‘in tus olganini aytib o‘tish kerak. Rus yozuvini lotin alifbosiga o‘tkazishga tayyorgarlik lotinlashtirish kompaniyasining eng avj nuqtasi bo‘ldi... Biroq rus alifbosini lotin yozuviga o‘tkazish harakati qarshilikka uchrab, inkor etildi. Markaz boshqaruv tizginini qo‘liga tezroq va batamom olishi uchun, sho‘rolar ittifoqidagi barcha xalqlar yozuvining yagona shaklda bo‘lishidan manfaatdor bo‘lgan. Turkiy xalqlarning arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tishlari ularni keyinchalik rus grafikasiga o‘tkazish uchun bir ko‘prik vazifasini o‘tashi lozim edi. Shunday bo‘lib chiqdi ham...

Albatta, o‘zbek tili alifbo va imlosi, adabiy til qoidalarining ishlanishida jadid ziyolilari tomonidan ta’lim bosqichlari uchun yaratilgan turli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-publitsistik va badiiy asarlar beqiyos o‘rin tutdi. Taniqli adabiyotshunos Abdurahmon Sa’diy o‘zbek adabiy tilining maydonga kelishi, avvalo, jadid ziyolilarining o‘z ona tillarida kitoblar bostirishi va matbuotni yo‘lga qo‘yishi orqali bo‘lganligini ko‘rsatib shunday yozgan edi: “Uyg‘onish davrida nashrda shuni (adabiy tilni – T.T.) Behbudiy turg‘uzib, Hoji Muinlar, Ashuralilar uni ishlaguchi bo‘ldilar”.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Ona tilim” maqolasida mustabid tuzum sharoitida tilimizni asrab-avaylagan, unga rivoj bergan jadidlar xizmatini chuqur minnatdorlik bilan qayd etadi: “O‘zbek tilining bugungi darajasi, turkiy tillar ichida tutgan mavqei uchun biz ko‘p jihatdan o‘tgan asr boshida yashagan ziyolilarimizdan minnatdor bo‘lishimiz kerak. Ular o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlaridan dadillik bilan foydalandilar, xalqda milliy g‘urur, ona tiliga hurmat tuyg‘usini tarbiya qildilar. Hali ruslashtirish siyosati avjiga chiqmasdan ilgari, yuzlab, minglab ruscha va baynalmilalcha so‘zlarni o‘zbekchalashtirib ulgurdilar. Birgina tilshunoslik bilan bog‘liq atamalar qancha! ...O‘sha zamon ziyolilarimizning ijodiy jasorati bois biz bugun shunday boy mulkka egamiz”.

Chindan ham Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon kabi o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalari badiiy til bobida o‘ziga xos maktab yaratgan so‘z san’atkorlaridir. Ularning badiiy til mahorati juda ko‘p yozuvchilar uchun ibrat maktabi bo‘ldi. Umuman, bu davr jadid shoir va yozuvchilari o‘z she’riy, nasriy, dramatik, publitsistik va boshqa asarlari bilan o‘zbek adabiy tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qo‘shdi.

Til – millatning ruhi, uning dunyoda borligining asosiy omili ekanini jadid bobolar ham teran anglashgan. Shu sababli ma’rifatparvar siymolar ona tilini millatga o‘zligini anglatishda, uning qudratini, shon-shuhratini ko‘tarishda, tushkun va tutqun zamonlarda esa ruhiyatini omon saqlash, unga qaytadan kuch bag‘ishlashda zo‘r qurol deb bilganlar. Faoliyatining ilk pallalaridan ona tili uchun qayg‘urgan jadidlar hamisha milliy til uchun kurash maydonida turdilar. Sovet davlati sharoitida ham bu tuzum bergan imkoniyatlardan foydalanib, o‘zbek xalqining milliy manfaatlarini himoya qildi. Ular ona tilining davlat tili bo‘lishi uchun kurashdi. Davlat muassasalarida ish yuritishni o‘zbek tilida olib borish masalasini doim ilgari surdi.

Xullas, Turkiston jadidligining katta avlodi boshlab bergan maktab-maorif, matbuot, teatrchilik, badiiy ijod yutuqlari izmaiz yetishib chiqqan yosh o‘zbek ziyolilari tomonidan munosib davom ettirildi. Zamonning atoqli jadid ma’rifatparvarlari mustamlaka tuzumining tazyiqlariga qaramasdan, o‘z hayotini o‘zbek xalqining milliy istiqloliga, har jihatdan taraqqiy etishiga, ma’naviy kamolotiga, ona tilining ravnaq topishiga bag‘ishladi. Fidoyi qahramonlarimiz xizmati xalqimiz xotirasida doimo e’zozlanadi, albatta.

To‘lqin TOG‘AYEV,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Qirg‘izboyev Husniddin – 1901-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Jamiyati Islomiya” va “Nashri maorif” tashkilotlarida kotiblik xizmatida bo‘lgan. Hibsga olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borib, sovet hukumati va uning tadbirlarini qoralagan. O‘zbekistonni SSSRdan ajratib olish uchun kurashga chaqirganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan. Mulki, buyumlari musodara etilgan.

Mansurov Asil – 1904-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Nashri maorif” va “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotlari a’zosi. Hibsga olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Gazetada millatchilik ruhidagi materiallarni e’lon qilganlikda ayblangan. O‘zSSR JK 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 28-iyuldan hisoblangan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Eshonxo‘jayev Yusufhoji – 1896-yili Kosonsoy rayoni Qorasuv qishlog‘ida tug‘ilgan. “Nashri maorif” tashkilotining faol ishtirokchisi. Qamoqqa olingan paytda hisobchi bo‘lib ishlagan. Quloqlar guruhiga boshchilik qilgani, partiya va hukumatning xotin-qizlarni ozod qilishiga qarshi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Mol-mulki musodara qilingan.

Latifboyev Mamajon – 1890-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. 1922-yili militsiyada ishlab, sotqinlik bilan shug‘ullangan. 1933-yili 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Qamoqqa olingan paytda “Sharq” kooperatsiyasi uyushmasi raisi bo‘lgan. 1936-yili Namangan shahridagi milliy tashkilotga a’zo bo‘lib kirgan. Qo‘zg‘olonchi tashkilotga kirganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Mol-mulki musodara qilingan.

Xolboyev Abdulla – 1895-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Mo‘yni islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgani uchun ayblangan. Hibsga olingan paytda do‘kon mudiri bo‘lgan. O‘zSSR JK 66-modda 1-bandi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 4-oktyabrdan hisoblangan.

Botirov Mamat – 1898-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi ekanlikda ayblangan. Hibsga olingan paytda o‘qituvchi bo‘lgan. 1932-yili tashkilot tomonidan Turkiyaga o‘qishga yuborilgan. Aksilinqilobiy, millatchilik targ‘iboti bilan shug‘ullanganlikda ayblangan. O‘zSSR JK 66-moddasi, 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yili 19-avgustdan hisoblangan.

Yunusov G‘ozi – 1889-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1918-yildan 1923-yilgacha Turkiston kompartiyasi a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida sovet hokimiyati to‘g‘risida bo‘hton ma’lumotlar tarqatganlikda ayblanib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 6-avgustdan hisoblangan.

Zohiriy Ashurali – 1885-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1930-yili “Milliy ittihod”, “Botir gapchilar” tashkilotlarini tashkil etishda faol qatnashgan. 10 yil qamoqqa hukm etilgan. Qamoqqa olingan vaqtda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1937-yili o‘z atrofiga 19 nafar millatchi faollarni birlashtirib, aksilinqilobiy guruhga rahbarlik qilganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Zafar G‘ulom Muzaffarovich – 1869-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1933-yili aksilinqilobiy, millatchilik faoliyati uchun 3 yil qamoq jazosiga tortilgan. U “Milliy ittihod” tashkiloti faoliyatida faol ishtirok etgani, Ikromovning topshirig‘i bo‘yicha sovetlarga qarshi o‘nlab ashulalar yozgani, O‘rta Osiyodagi dramaturglar komiteti ishida faol qatnashganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulk musodara qilingan.

Suyunboyev Hotam – 1883-yili Zomin tumanida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. 1925-yili sudlanib, bir yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Kolxozchilar orasida sovetlarga qarshi, aksilinqilobiy xarakterdagi ig‘vo tarqatgani, sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borgani uchun 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Allaqulov Jumaniyoz Polvonovich – 1898-yili Urganch shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Hibsga olinganda xizmatchi bo‘lgan. Xalq dushmanlari bilan aloqada bo‘lgani, partiya va hukumat tadbirlariga qarshi qaratilgan tuhmat, yolg‘on-yashiq uydirmalar tarqatganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Rahmatullayev Negmatulla – Zagza qishlog‘ida tug‘ilgan. Hibsga olingunga qadar kommunal tayyorlov bo‘limi xodimi bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Sovet hokimiyatini ag‘darib, mustaqil burjua davlatini qurishga uringanlikda, aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR JK 66-moddasi, 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 13-sentyabrdan hisoblangan.

Fozilov Rashid – 1902-yili tug‘ilgan. Qamoqqa olingan paytda maktabda o‘quv bo‘limi mudiri bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi ekanligi uchun ayblangan. U sovet hokimiyatini ag‘darishga yo‘naltirilgan aksilinqilobiy, millatchilik targ‘ibotini olib borganlikda, aksilinqilobiy yig‘ilishlar o‘tkazganlikda ayblanib, O‘zSSR JKning 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 2-sentyabrdan hisoblangan.

Usmonxo‘jayev Badal – 1874-yili tug‘ilgan. Qamoqqa olingan paytda to‘liqsiz o‘rta maktabda xo‘jalik mudiri bo‘lib ishlagan. 1937-yil rus yo‘lchilarining ommaviy ravishda o‘ldirilishida faol qatnashganlikda, yig‘inlarda sovet hokimiyatini ag‘darish va mustaqil burjua davlatini tuzish uchun kurash olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR JK 66-moddasi, 1-bandi bilan 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 4-sentyabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

XALQARO ANJUMAN

Maqomda ulug‘vorlik mujassam

Bugungi kunda yurtimizda milliy maqom san’atini rivojlantirish va kelajak avlodlarga bekam-u ko‘st yetkazishga katta e’tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida ulug‘ shoirlar, olimlar, bastakorlar, hofizlar-u sozandalarning beqiyos mehnati, fidoyiligi, ijodiy tafakkuri tufayli sayqal topib, bizning kunlarimizda ham ijro etib kelinayotgan maqom deb atalmish noyob san’at faqatgina yurtimiz va Sharq mamlakatlarida emas, balki dunyo miqyosida katta e’tibor va e’tirofga sazovor bo‘lmoqda.

2017-yil 17-noyabrda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq mamlakatimizda ilk marotaba Xalqaro maqom san’ati festivali yuksak saviyada o‘tkazilgan edi. Mazkur san’at anjumanida 20 dan ortiq davlatdan musiqashunoslar, yakka ijrochi va musiqiy jamoalar, mutaxassislar hamda faxriy mehmonlar qatnashgan edi. Shu yilning 27-30-iyun kunlari Jizzax viloyatining Zomin tumanida II Xalqaro maqom san’ati anjumani bo‘lib o‘tadi. O‘zbek Milliy maqom san’ati markazi bosh direktori Avazbek Shomurodov bilan maqom san’atini xalqimiz, xususan, yoshlar orasida keng ommalashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, maqom anjumanining mohiyati, mazkur tadbirning milliy san’atimiz rivojida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida suhbatlashdik.

– Markazda olib borilayotgan ishlardan asosiy maqsad – bizgacha yetib kelgan maqom ashulalarini, ustozlar ijrosidagi qo‘shiqlarni, shashmaqomlarimizni notalashtirib, keyingi avlodlarga qoldirishdan iboratdir, – deydi A.Shomurodov. – Viloyatlardagi bo‘limlarimiz va maqom ansambllari ham shu yo‘nalishda ish olib boryapti. Zero, maqomchilar va baxshilar ijodi o‘zbek xalqining o‘zligini anglatuvchi, milliy an’analarimiz, qadriyatlarimizni mujassam etgan san’atimizning eng qadimiy va boy turidir. Kezi kelganda ochiq aytish kerakki, yaqin-yaqinlargacha ba’zilar maqom eskirib ketgan san’at, uni tinglash, tomosha qilish zerikarli deb o‘ylashardi. Vaholanki, maqomlar asosida buyuk mutafakkir, alloma shoirlar g‘azallari yotadi, maqom va mumtoz ashulalar inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir qiladi, taranglashgan asab tolalarini bo‘shashtiradi. Ruh inson tanasiga musiqa orqali kirgani haqida rivoyat yuradi. Bu bejiz emas. Chunki musiqa hamma joyda – uyda ham, uzoq safarlarda ham, tadbirlarda, to‘ylarda, xullas, inson umri davomida u bilan birga. Musiqa, ashula ruhni xotirjam qilish bilan birga, kayfiyatni ham sozlaydi. Maqomlar kishini halollikka, poklikka chorlaydi, to‘g‘ri ijroni, ya’ni to‘g‘rilikni talab qiladi. Aynan shu sababli ham Maqom markazida ishlashning o‘zgacha shukuhi bor.

Maqomga bag‘ishlangan tadbirlarni tez-tez o‘tkazish nafaqat yurtimiz san’atini dunyoga tanitadi, balki yosh avlodda maqomga qiziqish uyg‘otishda katta ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, qadimda maqomlar saroylarda kuylanib, muhokama qilingan. Ya’ni maqom tinglash uchun kishida ilmiy salohiyat bo‘lishi talab etilgan. Ehtimol, shuning uchun bugungi yoshlarga maqom tinglash zerikarli tuyulishi mumkin. Shuni nazarda tutib, nima qilsak, maqomni yanada ommalashtirishga erishamiz, qanday yo‘l bilan xalqni, yoshlarni maqom tinglashga jalb etish mumkin, nafaqat uyda, konsert zallarida, balki restoranlarda, choyxonalarda maqom tinglashlari uchun nima qilish lozim, degan savollarga javob izladik. Shu tariqa maqom ijrosiga zamonaviy cholg‘ular ham qo‘shildi. Bugun maqomni tinglayotgan odamlarda boshqacha taassurot hosil bo‘lyapti. Bu bilan maqomlarimiz buzilayotgani yo‘q, balki musiqalarga sayqal berilyapti. Ya’ni maqomlar o‘z joyida turibdi, biz asliga tegmagan holda, ularga bezak beryapmiz. Shu o‘rinda Maqom markazi, uning hududiy bo‘linmalari xodimlari hamda Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining bu boradagi xizmatlarini alohida tilga olib o‘tish o‘rinlidir.

Hozirgi kunda ustozlar ko‘magida shashmaqom qayta ko‘rib chiqilyapti. Chunki hozirgi yozuvlarda so‘zlar noto‘g‘ri qo‘llangan joylar ham yo‘q emas. Zero, ustoz maqomdon Yunus Rajabiy ham o‘zining “Shashmaqom” kitobida “Shashmaqom zamonga qarab o‘zgarib boraveradi”, deb yozgan. Boshlagan bu ishimiz xayrli bo‘ladi, degan umiddamiz. Yana bir xayrli ish shuki, ustoz maqomdonlarimiz musiqa maktablarida yoshlarga dars o‘tishyapti. Ular orasida Isroiljon Vahobov, Nuriddin Aminjonov, Komila Bo‘riyeva, Matluba Dadaboyeva kabi san’atkorlar bor. Bu ustozlar yaqinda Samarqand shahrida katta konsert berishdi, musiqa maktablarida mahorat darslari o‘tib qaytishdi.

Shuningdek, Ozarbayjon va Tojikiston mamlakatlarida ijodiy safarda bo‘ldik. Sohib Poshshozoda boshchiligidagi ozarbayjonlik mutaxassislar Ozarbayjon Mug‘om markazi bilan birgalikda yurtimizda bo‘lishdi. O‘zaro hamkorlik shartnomalari imzolandi. Tojikiston Respublikasiga juda katta delegatsiya bilan bordik. Tojikistondagi opera va balet teatrida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli ikki soat davomida maqom ashulalaridan konsert berdi. Qardoshlarimiz konsertimizni olqishlar bilan tomosha qilishdi. Ozarbayjonga safarimiz chog‘ida ushbu mamlakat mutaxassislari bir gapni aytishdi: “Dunyoda o‘zbek maqomidek salmoqli maqom yo‘q. Ozarbayjon maqomi ham zalvorli, lekin o‘zbek maqomi ko‘proq tosh bosadi. Sizlarning maqomingizda qo‘llangan so‘zlarda ilohiy ruh mujassam”. Biz bunday e’tirofdan g‘ururlandik.

Ayni paytda “Navo” telekanali bilan hamkorlikda maqom haqida yangi ko‘rsatuv tayyorlanyapti. Xalqaro maqom anjumanini o‘tkazib kelsak, “Maqom-shou” ko‘rsatuviga ham jiddiy kirishamiz. Oldindan batafsil aytib qo‘ysak, qizig‘i qolmaydi. Shu bois hozircha ko‘rsatuv mazmuni sir bo‘la qolsin. Nasib qilsa, tez orada Turkiyada, Germaniyada, Amerika, Misr va Eronda ham maqomchilarimizning konsertini namoyish etmoqchimiz. Ya’ni o‘zbek maqomini dunyoga targ‘ib qilish niyatidamiz. Lekin bundan oldin o‘zimizning viloyatlar bo‘ylab safar uyushtirishni reja qilganmiz. Kezi kelganda, bizga yordam qo‘lini cho‘zib, tadbirlarimizga mablag‘ ajratayotgan Madaniyat vazirligiga minnatdorlik bildirmoqchiman. Shubhasiz, erishilayotgan yutuqlar, e’tiroflar ko‘ngilni ko‘taradi, amalga oshirilayotgan ishlardan g‘urur tuyadi kishi. Lekin bu ayni paytda zimmamizga katta mas’uliyat ham yuklaydi, yangilik yaratishga ishtiyoqni kuchaytiradi.

Shu kunlarda oldimizda katta sinov turibdi. Shu yilning 27-30-iyun kunlari Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi



so‘lim maskanda Xalqaro maqom anjumani bo‘lib o‘tadi. Tadbirda qatnashish uchun 75 ta davlatdan 410 nafar ishtirokchi, xususan, 20 ta davlatdan madaniyat vazirlari va o‘rinbosarlari, 11 ta davlatdan 40 dan ziyod jurnalistlar, 25 ta davlatdan 55 nafar faxriy mehmon, 15 ta xalqaro tashkilotdan 30 nafar vakil, 60 ta mamlakatning yurtimizdagi diplomatik korpusi vakillari va 209 nafar tanlov ishtirokchilari yurtimizga tashrif buyuradi.

Shuningdek, yettita xalqaro tashkilot – BMT, YUNESKO, MDH, TURKSOY, Turkiy madaniyat va meros fondi, Xalqaro folklor tashkiloti, Turkiy Parlament Assambleyasidan vakillar ham yurtimizga tashrif buyurishi kutilmoqda. Tadbir doirasida xalqaro musiqa yarmarkasi, maqom san’atiga oid ko‘rgazmalar, badiiy va hujjatli filmlar, kitoblar, fotosuratlar namoyishi tashkil etiladi. “Maqom san’atining nazariy va amaliy asoslari: yechim va muammolar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tadi. Bir so‘z bilan aytganda, II Xalqaro maqom festivalini yuksak saviyada o‘tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Gulchehra UMAROVA
yozib oldi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Do‘ppi bu – qadriyat!

Odamlarni ovsar, landovur, ahmoq, jinni, qoloq, omi, befarosat, savodsiz qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lishsa, nega boshlariga do‘ppi kiyib olishadi?!

Bironta turkning milliy bosh kiyimini kiyib, qiyshanglayotganini ko‘rganmisiz?

Men qozoq, qirg‘iz qardoshlarimizning ham bunday qilishganini ko‘rmaganman.

Hammasi iste’dodli yigitlar, gap yo‘q, ijod qilishyapti. Ammo nega o‘z millatining bu kabi qiyofasini yaratishga, uni targ‘ib qilishga bunchalar zo‘r berishyapti?!

Yigitlar, do‘ppi o‘zbek millati uchun shunchaki bosh kiyimi emas, bu – qadriyat!

Aqlni yig‘ib olish kerak!

Jahongir AHMEDOV
Facebook





Do‘ppi asli polvonlarga yarashadi,
Do‘ppi asl insonlarga yarashadi!
Shukur LATIF

“Qayga bormay, boshda do‘ppim...”

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov:

“Qayga bormay
boshda do‘ppim,
G‘oz yurarman gerdayib,
Olam uzra dong‘i ketgan
***O‘zbekiston, o‘zbegim!”* –**

deganlarida do‘ppimizni millatimiz timsoli sifatida tasvirlagan.

Muhammad Yusuf ham “Do‘ppi kiymay qo‘ydi odamlar” deya o‘yga tolgandi.

Ayrim blogerlarimiz, san’atkorlarimiz media olamida do‘ppini yana trendga olib chiqarishdi, ammo boshqacha talqinda.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida Otabekdek zabardast va zukko o‘zbek yigiti boshida do‘ppisi bilan tasvirlangan bo‘lsa, hozir qaysi ko‘rsatuv yoki ijtimoiy tarmoqdagi videoga qaramang, aksariyat holatda dovdir va anqov odamlarning obrazi boshiga milliy bosh kiyim qo‘ndirilyapti. Eng achinarlisi shundaki, media olamni butun dunyo kuzatadi va o‘zbeklarni do‘ppisi bilan eslab qoladi. Endi savol: ularning tasavvurida qanday qolyapmiz ekan?

Anchadan buyon ko‘nglimni xira qilayotgan yana bir narsa bor. Mahalliychilik! Boshqa xalqlar birlashib, o‘z mustaqilligi yo‘lida jon olib, jon berayotgan bir davrda, biz “Sen toshkentliksan, sen viloyatliksan”, deb tortishib yuribmiz. Ming afsus...

Ajdodlarimizning shuhrati bilan o‘zbekman deb kerilganimiz-kerilgan. Biz ma’nan va qalban bir millat bo‘lolmas ekanmiz, hech qachon buyuk davlat bo‘lolmaymiz.

Nega bundaysan, o‘zbegim?

O‘z holingga yig‘lash o‘rniga o‘z ustingdan kulganing-kulgan!

Quddus ASAD

E’LON

Diqqat, ijodiy tanlov!

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘i hududida barpo etiladigan Mustaqillik monumenti loyihasini yaratish bo‘yicha rassom va haykaltaroshlar o‘rtasida ijodiy tanlov e’lon qiladi.

Tanlovga taqdim qilinadigan ijodiy loyihalarda uch ming yillik o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan surxon vohasiga oid muhim tarixiy ma’lumotlar, ushbu hududga xos azaliy qadriyat va an’analar, mustaqillik yillarida erishilgan salmoqli yutuqlar hamda oddiy insonlarning ezgu orzu-umidlari haykaltaroshlik san’atining ilg‘or an’analari hamda betakror badiiy-me’moriy yechimlar asosida yuqori badiiy saviyada aks ettirilgan bo‘lishi lozim.

Tanlovda mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha taniqli haykaltaroshlar, monumental san’at sohasida va zamonaviy shaharsozlikda haykallarni o‘rnatish borasida yetarli bilim va tajriba to‘plagan mutaxassislar ishtirok etishi mumkin.

Loyiha eskizlarining tanlovga mo‘ljallangan modeli nusxa ko‘chirish va uzoq muddat saqlashga mo‘ljallangan istalgan materialdan tayyorlanishi mumkin.

Ijodiy loyihalar joriy yil 20-iyunidan 20-iyul sanasiga qadar qabul qilinadi.

Tanlovga mo‘ljallangan ijodiy loyihalarni O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasining Markaziy ko‘rgazmalar zaliga topshirish so‘raladi.

Manzil:
Toshkent shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 40-uy.
Bog‘lanish uchun telefon:*71 232-17-66.*



Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6024
Lotin yozuvidagi adadi – 11916
Media kuzatuvchilar – 12063
Buyurtma: G – 640.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:30
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz